

# Bahor ayyomi qutlug' bo'lsin!

جدید

2026-yil 20-mart  
№ 12 (116)

www.jadid.uz



Tilda, fikrda, ishda birlik!

# Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid\_uz

## O'ZBEKISTON XALQIGA RAMAZON HAYITI TABRIGI

### Qadrli vatandoshlar!

Siz, azizlarni, butun xalqimizni ezgulik, mehr-oqibat va saxovat ayyomi – muqaddas Ramazon hayiti bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etaman.

Ushbu shukuhli onlarda barchamizni mana shunday fayzli va saodatli kunlarga yetkazgani uchun Yaratganga cheksiz shukronalar aytamiz.

Keyingi yillarda shakllangan an'anamizga muvofiq, mamlakatimizda Ramazon oyini munosib o'tkazish bo'yicha bu yil ham sizlar bilan, xalqimiz bilan birgalikda ko'plab xayrli ishlarni amalga oshirdik.

Avvalo, maxsus qaror asosida aholining ehtiyojmand qatamlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida keyingi 35 yilda birinchi marta 1 trillion so'm mablag' ajratilib, muhtoj va kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash, bemorlarga zarur tibbiy yordam ko'rsatish kabi ezgu ishlarga sarflanganini ta'kidlash lozim. Xususan, 450 milliard so'm 600 mingdan ziyod ehtiyojmand oilaga moddiy ko'mak tariqasida yo'naltirildi. Bundan tashqari, ijtimoiy reyestrda davolash rejalashtirilgan 6 ming nafar bemorga tibbiy yordam ko'rsatilmoqda, jumladan, og'ir kasallar operatsiya yo'li bilan davolanmoqda.

Shuningdek, aholiga 100 ming dona Ramazon sovg'alari tarqatildi. "Ramazon tuhfasini" loyihasi doirasida esa ehtiyojmand oilalar, "Muruvvat" va "Saxovat" uylarida yashovchilar hamda xorijdagi vatandoshlarimiz uchun 30 mingdan ortiq iftorlik tadbirlari o'tkazildi.

Bunday olijanob ishlar muqaddas dinimizning insonparvarlik mohiyatiga uyg'un va hamohang bo'lib, inson qadriini yuksaltirishga qaratilgan islohotlarimizning ulkan amaliy natijalari sifatida barchamizni xursand qiladi.

### Aziz do'stlar!

Bugungi kunda Yangi O'zbekiston o'z taraqqiyotining yanada muhim bosqichiga qadam qo'yimoqda. Keng ko'lami yangilanish jarayonlari tufayli hayotimizning barcha soha va tarmoqlarida o'sish va yuksalish sur'atlari ortib bormoqda. Diniy-ma'rifiy sohani rivojlantirish, islom sivilizatsiyasining boy merosini chuqur o'rganish va uni keng targ'ib qilish borasida ham katta ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu haqda so'z yuritganda, o'tgan yili Buxoro shahrida tasavvuf ta'limotining yorqin namoyandasi, buyuk avliyo bobomiz Bahouddin Naqshband hazratlari nomidagi ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etilganini esga olish o'rindir.

Bu yil esa, mana shu qutlug' va muborak kunlarda Toshkent shahrida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Samarqand viloyatida Imom Buxoriy yodgorlik majmuasining ochilishi xalqimizga o'ziga xos Ramazon tuhfasini bo'ldi.

Bu kabi ezgu ishlarimizning davomi sifatida kalam ilmining sultoni Imom Moturidiyning Samarqand shahridagi majmuasi yangidan barpo etilmoqda. Toshkent shahrida esa yaqin kunlarda Xalqaro bag'rikenglik va dinlararo muloqot markazi faoliyatini yo'lga qo'yamiz. Ushbu markaz Vatanimizning millatlar va dinlararo muloqot va hamkorlik, tinchlik va do'stlik diyorini sifatidagi nufuzini oshirishga xizmat qiladi, deb ishonaman.

### Hurmatli yurtdoshlar!

Jahondagi hozirgi g'oyat murakkab vaziyatda oila va mahallalarda, butun mamlakatimizda osoyishtalik, fayz-u baraka muhitini saqlash, yoshlarimizni yot va buzg'unchi g'oyalari ta'siridan asrash o'ta dolzarb vazifamiz bo'lib qolmoqda.

Biz bu borada katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan muhtaram otaxon va onaxonlarimiz, jonkuyar aka-uka va opa-singillarimiz, hurmatli ziyoli va ulamolimizga, mahalla faollari

hamda tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz.

Ushbu ulug' ayyom kunlarida jahonning turli hududlaridagi urush va nizolar tezroq barham topib, barcha xalqlar tinchlik va barqarorlikda hayot kechirishini tilab qolamiz.

Fursatdan foydalanib, dunyoning olis va yaqin mamlakatlardagi musulmon birodarlarimizni qutlab, samimiy salom va tilaklarimizni yo'llaymiz.

Xorijda bayram shukuhini bilan yashayotgan vatandoshlarimizni ham chin dildan tabriklab, ularning ishlari va o'qishlariga muvaffaqiyatlar tilaymiz.

### Qadrli va muhtaram yurtdoshlar!

Alloh taoloning rahmati yog'ilib turgan ushbu qutlug' damlarda siz, azizlarni lyd al-Fitr bayrami bilan yana bir bor muborakbod etib, barchangizga sihat-salomatlik, baxt-saodat, xonadonlaringizga tinchlik-xotirjamlik, fayz-u baraka tilayman.


Ramazon oyida tutgan ro'zalarimiz, qilgan ezgu amallarimiz qabul bo'lsin!

Parvardigori olam el-yurtimizni O'z panohida asrasin!

Ramazon hayiti barchamizga muborak bo'lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,  
O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti

BUGUNNING SHE'RI



Abdulla ORPOV

## NAVRO'Z

Avval yuragingga mo'ralaydi u,  
So'ngra kurtaklarga o'rgatadi so'z.  
Zaminning ko'zidan qochadi uyqu,  
Demak, Bahor keldi,  
Kelmoqda Navro'z.

Qishning ahvoliga boqib hoynahoy,  
Yum-yum yosh to'kmoqda eriyotgan muz.  
Jilva qilayotir tengsiz bir chiroy,  
Demak, Bahor keldi,  
Kelmoqda Navro'z.

Ona bag'ri kabi iliqlik olam,  
Harir hovur ichra yayrar dala-tuz.  
Qoldi puchmoqlarda xazon yanglig' g'am,  
Demak, Bahor keldi,  
Kelmoqda Navro'z.

Yana ko'ngillardan rutubat ketdi,  
Yana shu'lalardan qamashmoqda ko'z.  
Yana dildorlikning fursati yetdi,  
Demak, Bahor keldi,  
Kelmoqda Navro'z.



(4-sahifada o'qing.)

VATANDOSH

## YEVROPADAGI DIYDOR

O'zbekiston hukumati tomonidan xorijdagi vatandoshlar bilan o'zaro rishtalarni mustahkamlash maqsadida muborak Ramazon kunlarida iftorlik dasturxonlari yozish, Hayit bayrami munosabati bilan ularning holidan xabar olish tadbirlari o'tkazilmoqda. Ushbu xayrli tashabbus Turkiyadan boshlanib, Yevropaning Buyuk Britaniya, Belgiya, Niderlandiya, Chexiya, Norvegiya va Shvetsiya kabi bir qator mamlakatlarini qamrab oldi. Xususan, O'zbekistonning Belgiya qirolligidagi elchixonasi tomonidan Rotterdam shahridagi Xo'jatepa jome masjidida tashkil etilgan tadbirida ikki yuzdan oshiq vatandoshlar ishtirok etdi.



So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, Niderlandiyada ikki ming nafarga yaqin o'zbekistonlik rasman ro'yxatga olingan bo'lsa, ayni paytdagi norasmiy raqamlar bundan ancha salmoqli ekani aytiladi. Shu bois, vatandoshlar boshini qovushtirish yo'lidagi bunday tadbirlar doirasi Niderlandiyani ham o'z ichiga olgani bejiz emas.

(Davomi 3-sahifada.)

QADRDON KITOBLAR

## BIR ASAR TAASSUROTI



Bobur nomidagi xalqaro ilmiy ekspeditsiya safarlari natijasida yaratilgan "Boburiynoma", "Hind sorig'a", "Andijondan Dakkagacha", "Asrlarni bo'ylagan Bobur", "Boburiylar izidan" singari o'nlab asarlarni yaxshi bilamiz. Yaqinda iste'dodli shoir, "Jadid" gazetasi xodimi Shahriyor Shavkatning buyuk ajdodlarimiz qo'nim topgan Afg'oniston zaminiga, hazrat Navoiy aytganidek, "zod-u hamrohsiz" – yakka o'zi amalga oshirgan g'aroyib safari taassurotlarini qiziqib o'qiddik. Bu kabi safarnomalar mavzuga yangicha yondashuvi, noyob tarixiy manbalarga boyligi, qiziqarli voqealari bilan o'quvchi e'tiborini tortadi.

(Davomi 5-sahifada.)

FAKT

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jazo muddatini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'lga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida"gi Farmoni imzolandi.

Markaziy bank boshqaruvining 18-martdagi yig'ilishi yakunlari bo'yicha asosiy stavka 14 foiz darajasida o'zgarishsiz qoldirildi.

Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 1-mart holatiga O'zbekistonda chet el investitsiyalari ishtirokida jami 18 770 ta korxonalar faoliyat yuritmoqda.

Toshkent – Xiva yo'nalishidagi "Jaloliddin Manguberdi" tezyurar poyezdi qatnovlari joriy yil 2-may sanasidan yo'lga qo'yiladi.

IFTIXOR



Agar bizning kuch-qudratimizga shubha qilsangiz, biz qurdirgan imoratlarga boqing.


Amir TEMUR

## UCHINCHI RENESSANS BUNYODKORLIGI

Zamon shiddatidan ba'zan aqlimiz lol qoladi. Zimmamizdagi vazifalar, uy-ro'zg'or, bola-chaqaning shirin tashvishlari bilan andarmon bo'lib kunlar oyga, oylar yilga ulanadi. Shu orada yon-atrofga qarashga, mahallamiz, shahrimiz, umuman, yurtdagi o'zgarishlar, yangilanishlarni ko'rishga, idrok etishga doim ham vaqt topa olmasligimiz bor gap. Ustozlarimiz yozganday, "Chashma qoshida tiniq suv// Qadrini bilmas kishi".

(Davomi 2-sahifada.)

KECHA VA BUGUN




## ZIYORAT

Falakning ishlari qiziq, umr yo'laringizni kutilmagan tomonlarga burib yuboradi.

Talabalik davrimiz – Samarqand davlat universitetida o'qib yurgan kezlrimiz har yili kuzda paxta terimiga chiqamiz. Borar manzili-miz asosan Oqdaryo tumanidagi "Dahbed" sovxozni dalalari bo'lardi. Buni qarangki, 1983-yilda, banogoh, kamina tug'ilib-o'sgan Payariq tumaniga borib qoldik. Yana deng, o'zim o'n yil ta'lim olgan maktab, ne-ne go'zal hissiyotlar-u xotiralar qolgan tanish o'quv xonasi biz uchun yotoqqa aylandi. Dafatan odam ishongisi kelmaydi.

Charxi kajraftor ustimdan kulganimi yoki siylaganimi bu – bilolmay boshim garang. Qadrdon qishlog'im bir odim narida.

(Davomi 7-sahifada.)



# UCHINCHI RENESSANS BUNYODKORLIGI

Boshlanishi 1-sahifada.

Shunday chog'larda yangi obyektlarning ochilgani haqida eshitasak, borib ko'rsak, ular xuddi Oydan tushganday taassurot qoldiradi. Beixtiyor kechagina bu yerlar pana-pastqam binoli ovul yoki yaydoq qir bo'lganini o'ylab qolamiz.

O'tayotgan hafta mamlakatimizda tarixiy voqealarga boy bo'ldi. Avvalo, quyosh va oy taqvimiga ko'ra nishonlanadigan Ramazon hayiti va Navro'z bayramining bir-biriga muvofiq kelishidek kamyob hodisaga shohid bo'lyapmiz. Xalq ta'biri bilan aytganda, to'ylar to'yga, bayramlar bayramga ulanmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ishtirokida xalqimizning yuksak aql-zakovati, fidokorona mehnati bilan bunyod etilgan muhtasham va muazzam imoratlar – O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi hamda Imom Buxoriy majmuasining tantanali ochilishi, hech shubhasiz, shu saodatli kunlarning eng muhim voqealaridan biri bo'ldi.

Ma'lumki, o'lkamiz hududi asrlar davomida jahon tamadduni markazlaridan biri sifatida islom madaniyati va ilm-fani rivojida beqiyos o'rinni tutib kelgan. Buyuk mutafakkirlar, allomalar va muhaddislar yetishib chiqqan bu tabarruk zaminda boy ma'naviy meros shakllangan. Ana shu ulkan merosni asrab-avaylash, uni chuqur o'rganish va keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida barpo etilgan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi ayni paytda xalqaro ahamiyatga ega ilmiy-ma'rifiy maskan sifatida e'tibor qozonmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 19-sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida Toshkentda Islom sivilizatsiyasi markazi bunyod etilayotgani haqida to'xtalib, muqaddas dinimiz ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarini asrab-avaylashga, ilm-ma'rifat yo'lga da'vat etishini, uni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadiganlar bilan murosasizlik bilan bo'lmasligini alohida ta'kidlagan edi. Ana shu yuksak g'oya va maqsadlar asosida bunyod etilgan yangi majmua xalqimizning uch ming yillik tarixi va bunyodkorlik salohiyati, jahon tamadduniga qo'shgan ulkan hissasi, buyuk ajdodlarimizning madaniy-ma'rifiy merosini chuqur o'rganish va keng ommalashtirishga xizmat qiladi.

Markaz binosi Prezident Shavkat Mirziyoyevning me'moriy g'oya va takliflari asosida loyihalashtirilgan. Bunyod etish jarayonida davlatimiz rahbari ushbu majmua-ga bir necha bor tashrif buyurib, uning mazmunan va shaklan yanada mukammal bo'lishi yuzasidan qimmatli tavsiya va maslahatlarini ulashdi.

Majmua mahobatini his qilish uchun bir necha raqamlarni keltirishning o'zi kifoya. Xususan, Markaz Toshkentning mashhur Hazrati Imom majmuasi hududidagi 10 gektar maydonda barpo etilgan. Bino uch qavatdan iborat bo'lib, uzunligi 161 metr, eni 118 metrni tashkil etadi. Gumbazining balandligi 65 metr, umumiy foydalanish hududi esa 42 ming kvadrat metrdan ziyod. Quvonarlisi, bu kabi noyob ko'rsatkichlar majmuani "Ginnesning rekordlar kitobi"ga kiritish uchun ham asos bo'ladi.

Markaz qadimiy va milliy me'morchilik an'analarini asosida qurilgan, unga to'rt tomondan – to'rt asosiy portal orqali kirish mumkin. Ushbu portallar va binoning tashqi ravoqlari ilm-ma'rifat, bag'rikenglik, insoniylik va ota-onaga hurmat mazmunidagi Qur'on oyatlari hamda hadislar bilan bezatilgan.

Shuningdek, bu yerda eng zamonaviy texnologiyalar keng qo'llangan. Virtual va kengaytirilgan reallik, sun'iy intellekt



Markazning asosiy zali, ta'bir joiz bo'lsa, qalbi – bu, hech shubhasiz, muqaddas Qur'on zalidir. Bu yerda dunyodagi eng qadimiy 6 ta Qur'oni karimning biri bo'lgan mo'tabar Usmon mus'hafi bugun o'zining yuksak maqomiga munosib sharafli o'rinni topdi.

Shavkat MIRZIYOYEV

hamda gologramma yordamida qadimiy qo'lyozmalar "jonlantiriladi", tarixiy ilmiy muhit raqamli shaklda qayta tiklanadi. Tomoshabin bevosita jarayon ishtirokchisiga aylanadi, buyuk olimlar bilan virtual muloqot qilib, ilmiy tajriba muhitini his etadi.

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi mahobati, maydoni, qamroviga ko'ra, islom tarixi, madaniyati va sivilizatsiyalarini o'rganish hamda targ'ib etishga qaratilgan jahondagi yirik majmualardan biri hisoblanadi.

Markaz mahobati va malohati har qanday nozikta'binsonni ham o'ziga tortadi. Dilda mustahkam devorlar, ulug'vor eshiklar ortida nima borligiga qiziqish uyg'otadi. Kitob muqovasiga monand mazmuni ham teran va go'zal bo'lishi kerak. Shu ma'noda, Markazning "mag'zi to'q" bo'lishini ta'minlash borasida ilgari tariximizda ko'rilgan ishlar amalga oshirildi. Ya'ni, majmuaning qurilishi va eksponatlar bilan boyitilishi parallel olib borildi. O'tgan yilning o'zida 1,5 mingdan ortiq eksponat, jumladan, 800 ga yaqin qadimiy qo'lyozma, arxeologik topilma va tarixiy xaritalar ekspozitsiyaga joylashtirilgan. Ayni vaqtda xorijiy auksion uylari, yirik kolleksioner va art dilerlar bilan hamkorlik o'rnatilib, 743 ta eksponatning original, ya'ni, asl nusxalari yurtimizga keltirildi.

Markaz jamoasi buyuk allomalarimizning dunyo bo'ylab sochilib ketgan ilmiy merosini qaytarish ustida tinimsiz ishlamoqda. Ko'plab kolleksionerlar va jadidlarning avlodlari o'zlarida saqlanib qolgan nodir manbalarni Markazga taqdim etayotgani, fuqarolar tomonidan asrlar davomida oilaviy meros sifatida saqlab kelingan qo'lyozmalarining fotoportretlari o'rinni olgan bo'lgan yuksak ehtirom namunasidir.

Majmua tarkibidagi kutubxonada fondi 45 ming 150 tadan ziyod adabiyotni qamrab olgan, shundan 2 ming 609 tasi nodir nashrlar. Bo'limlardan biri 22 nafar ma'rifatparvar jadid bobomizning merosiga bag'ishlangani milliy o'zlikni anglash yo'lidagi yana bir muhim qadamdir. Javonlardan Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Qodiriy, Cho'ipon, Fitrat kabi millat fidoyilarining fotoportretlari o'rinni olgan. Har bir jadid siymosi yonida ular tomonidan yozilgan nodir adabiyotlar, faoliyatiga oid noyob tadqiqotlar va o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy manzarasini aks ettiruvchi manbalar saqlanmoqda. Bu bo'lim kelajak avlod uchun haqiqiy tafakkur maktabi bo'lib xizmat qiladi.

Kutubxonada buyuk mutafakkirlarimiz tashkil etgan ilmiy maktablar bo'yicha ham alohida bo'limlar bor. Bu yerda ularning asarlariga yozilgan sharhlar va zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning to'planishi tarix va bugun o'rtasidagi ma'naviy ko'prikn mustahkamlaydi. Ushbu nodir kutubxonani millatimizning "genetik kodi"ni asrovchi o'ziga xos xazina, deyinsh mumkin. Markazda to'planayotgan har bir nodir qo'lyozma va kitob O'zbekistonning yorug' kelajagi uchun xizmat

qiladigan ilm bulog'idir. Zero, ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosini o'rganish va uni xalqqa yetkazish – bizning nafaqat qarzimiz, balki Yangi O'zbekistonning buyuk kelajagiga qo'ygan eng katta sarmoyamizdir.

Davlatimiz rahbari Markaz bilan tanishishni Qur'oni karim zalidan boshlagani bejiz emas. Darhaqiqat, bu zalning eng noyob manbasi bo'lgan Usmon Qur'oni Buyuk Temuriylar davridan keyin bugungidek sharaflanmagan edi.

Ushbu Mus'haf uch asrdan ziyod vaqt davomida Samarqandda, keyin qariyb yarim asr chor Rossiyasi kutubxonasida, yetti yil Ufa shahrida, oltin besh yil sovet O'zbekistoni muzeylarida asrab kelindi. 1989-yili O'zbekiston hukumatining qaroriga binoan Toshkentdagi O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari idorasi ixtiyoriga topshirildi. Shundan keyin Mus'haf Mo'yi Muborak tarkibidagi maxsus binoda saqlandi.

Endilikda Islom sivilizatsiyasi markazining Qur'oni karim zalidan joy oldi. Kitob joylashtirilgan maxsus oynavand sandiqqa yaqinlashar ekansiz, maxsus mepping gologrammasida koinot tasviri namoyon bo'ladi. E'tiborlisi, gumbaz ostidagi yulduzlar kompozitsiyasi Toshkent osmonida tunda ko'rinadigan yulduzlar xaritasi asosida shakllantirilgan. Ularni ifoda etish uchun 90 dona "svarovskiy" toshi va 650 dan ortiq chiroqdan



foydalanilgani mazkur zalga alohida ulug'vorlik bag'ishlagan.

Bu yerda Usmon Mus'hafi bilan bir qatorda yurtimizga tegishli bo'lgan, turli sulolalar davrida yaratilgan 114 ta nodir Qur'on qo'lyozmasi jamlangan. Bu qo'lyozmalar Sharq kitobat san'atining yuksak namunalarini sifatida nafaqat diniy, balki ulkan tarixiy, ilmiy va badiiy qimmatga ham ega.

Markazning ochilishi O'zbekistonning xalqaro maydondagi o'rni va nufuzi oshib, dunyoda ishonchli hamkor sifatidagi roli ortib borayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, u strategik diplomatiya, xalqaro xavfsizlik va farovonlikni mustahkamlash,

murakkab global davrda hamkorlikning yangi uflarini ochishga xizmat qilishi bilan alohida ahamiyatli.

Markazda yosh avlod tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilgan. "1001 iltiro" laboratoriyasi orqali bolalarda ilm-fan, texnika va muhandislikka barvaqt qiziqish uyg'otish maqsad qilingan. Bu esa kelajak avlodning intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, majmua faqat ko'rgazma maydoni emas, balki yirik ilmiy muassasa ham hisoblanadi. Bu yerda restavratsiya laboratoriyalari, xattotlik maktabi va zamonaviy raqamli arxiv faoliyat yuritadi. Hududda qator nufuzli xalqaro tashkilotlar vakolatxonalarini joylashtirgan markaz ahamiyatini yanada oshiradi. Umuman, majmuani Markaziy Osiyodagi eng yirik madaniy-ilmiy loyihalardan biri sifatida baholash mumkin.

Shu sababli, dunyo ekspert va mutaxassislari mazkur markazni islom sivilizatsiyasi ilmiy merosini zamonaviy texnologiya orqali jahonga taqdim etuvchi yangi platforma sifatida qabul qilmoqda. Ayni vaqtda, uni madaniy diplomatiya va turizm salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi strategik obyekt sifatida ta'rifiyatganlar ham bisyor.

E'tiborlisi, ushbu ulkan loyihani bunyod etish jarayonida 40 dan ortiq mamlakatdan



Iqbol MIRZO,  
O'zbekiston xalq shoiri

Markaz qisqa muddat ichida xalqaro nufuzli tashkilotlar va nashrlar tomonidan e'tirof etildi. AQSHdagi Smitson institutining "Smithsonian Magazine" nashri talqiniga ko'ra, ushbu majmua 2026-yilda dunyoda eng katta qiziqish bilan kutilgan 10 ta muzeydan biri sifatida e'tirof etilgan. Shuningdek, "Condé Nast Traveler" nashri uni 2026-yil iyun oyida tashrif buyurish mumkin bo'lgan muzeylar ro'yxatiga kiritgan, BBC Travel esa dunyodagi eng ko'p kutilgan muzeylar qatoriga qo'shgan.

Biz ham Uchinchi Renessans poydevori deya ta'riflanayotgan Islom sivilizatsiyasi markazi, hech shubhasiz, Britaniya, Luvr va Metropolitan muzeylari safiga qo'shilishiga, asrlar davomida yurtimiz va dunyo ahli uchun ruhiy-ma'naviy ozuqa oladigan betimsol ma'rifat kashonasi bo'lib xizmat qilishiga ishonamiz.

To'qqiz yil oldin oliy minbarda Imom Buxoriy nomi yangragani kechagiday yodimizda. 2022-yilda "Oliy darajali Imom Buxoriy" ordeni ta'sis etilishi ham buyuk alloma xotirasiga ko'rsatilgan yuksak ehtirom namunasidir.

Kuni kecha Prezident Shavkat Mirziyoyev Imom Buxoriy majmuasida yakuniga yetgan bunyodkorlik ishlari va yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Majmua Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan buyuk muhaddis bobomizning islom olamida tutgan yuksak mavqeyi, ulkan salohiyatiga munosib tarzda qaytadan bunyod etildi.

**Buyuk allomalardan biri Imom Buxoriy o'z ahamiyatiga ko'ra islom dinida Qur'oni karimdan keyingi muqaddas kitob hisoblangan "Sahih Buxoriy"ning muallifi sifatida butun dunyoda tan olingan. Bu ulug' zotning g'oyat boy merosini asrab-avaylash va o'rganish, ma'rifiy islom to'g'risidagi ta'limotini keng yoyish maqsadida biz Samarqand shahrida Imom Buxoriy nomidagi Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qildik.**

Shavkat MIRZIYOYEV  
(BMT Bosh Assambleyasining  
72-sessiyasidagi nutqidan)

Bu yerda ziyoratchilarga har tomonlama qulay sharoit yaratilgan. Xususan, majmua qoshida turizm markazi ochilib, yondosh 15 gektar maydonda zamonaviy infratuzilma yaratilib, shinam mehmonxonalar, xizmat ko'rsatish va servis nuqtalari barpo etilgan.

Majmua ilgari bir kunda 12 ming ziyoratchiga xizmat ko'rsatgan bo'lsa, hozir 65 ming nafar ziyoratchini qabul qilish quvvatiga ega. Uning maydoni 45 gektar. 10 ming kishiga mo'ljallangan ulkan masjid, ma'muriyat binosi, 154 ustunli, milliy uslubdagi muhtasham avyon qurildi. 14 ta moviy gumbaz, 75 metrlik 4 ta minora qadamjoga ulug'vor qiyofa bag'ishlayapti.

Majmua tarkibida eng ilg'or axborot texnologiyalari asosida 9 pavilondan iborat noyob innovatsion muzey ham barpo etilgan. U islom olamida muhaddislar sultoni deya e'tirof etilgan Imom Buxoriyning hayoti va ilmiy merosi, islom ma'rifati rivojiga qo'shgan hissasini namoyon etadi.

Prezidentimiz bu joy faqat ziyorat emas, ilm-ma'rifat, tarbiya va ibrat maskani bo'lishi, Imom Buxoriyning buyuk izanishlari, bilimi hamda kamoloti ziyoratchilar, ayniqsa, yoshlar uchun ezgu namuna bo'lishi kerakligini ta'kidlagandi.

Shuning uchun ham tashrif davomida Imom Buxoriy majmuasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni keng yo'lga qo'yish, uni chinakam tarbiya va ibrat maktabiga aylantirish, bu yerda imom-xatiblar, mahalla faollari uchun malaka oshirish dasturlarini kuchaytirish lozimligi ta'kidlandi.

\*\*\*

Ushbu ikki majmua Yangi O'zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi faoliyat uchun fundamental baza, yoshlarimiz orasidan yangi xorazmiylar, beruniy va ulug'beklar, farg'oniy va ibn sinolar, buxoriy va termiziyalar yetishib chiqishi uchun mustahkam ma'naviy maydon bo'lajak! Bu barchamizning ezgu niyatimizdir.



1 ming 500 ga yaqin mutaxassislar ishtirok etgan. Xorazmdagi Ma'mun akademiyasi yoki Samarqanddagi Ulug'bek madrasasi kabi o'z davrida Markaziy Osiyoni dunyoning yetakchi ilm-fan markazlaridan biriga aylantirgan muassasalar an'anasini davom ettirgan holda, Islom sivilizatsiyasi markazi yangi avlod uchun ushbu boy intellektual merosni qayta tiklashga xizmat qiladi.

Bu shuni anglatadiki, Toshkent shunchaki yangi muzeyni taqdim etayotgani yo'q – u o'zining ilm-fan chorrahasi sifatidagi tarixiy maqomini qayta tiklamoqda. Markazning BMT Sivilizatsiyalar alyansi bilan imzolagan memorandumini esa uning global miqyosdagi ma'rifiy va gumanitar ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostonida donishmand podshohning timsoli bo'lmish Mirzo Ulug'bekka shunday ta'rif beradi:

**Temurxon naslidin sulton Ulug'bek,  
Ki olam ko'rmadi sulton aningdek.  
Rasadkim bog'lamoish zebi jahondir,  
Jahon ichra yana bir osmondir.  
Qiyomatga degancha ahli ayyom,  
Yozarlar aning ahkomidin ahkom.**

Davlatimiz rahbari Markaz ochilishiga bag'ishlangan nutqida ushbu baytlarga ishora qilib, "O'z davrida Mir Alisher Navoiy bobomiz Mirzo Ulug'bekning o'lmas merosi dunyo turguncha tursin, deb tilak bildirgan edi. Bizning ham orzu-maqsdimiz shunday: Islom sivilizatsiyasi markazi el-yurtimizga, jahon ahliga hamisha bemininnat xizmat qilsin! Mana shunday ulug' ishlarning bunyodkori bo'lgan mard va olijanob xalqimiz doimo omon bo'lsin!", deb ta'kidlandi.



“Navro‘zi olam 3 ming yillik davlatchiligimiz tarixida o‘zining beqiyos ma‘naviy ahamiyati bilan hamisha alohida e‘tibor topgan buyuk bayramdir. Xalqimiz asrlar davomida og‘ir va mashaqqatli, sinovli paytlarda ham bu bayramni olijanob tabiati va qadriyatlarini bilan asrab-avaylab kelgani chinakam mo‘jizadir”.

Shavkat MIRZIYOYEV

# YANGI O‘ZBEKISTONDA YANGI KUN!

## NAVRO‘Z DUNYOSI

Bugungi kunda Navro‘zga butun insoniyat bayrami sifatida qaralmoqda. Uni munosib nishonlash borasida esa olam ahli turkiy xalqlar merosidan ulgi olmoqda. Har bir xalqdagi o‘ziga xoslik, yagona bayram ruhiga birlashib, kamalakdek go‘zallik va mutanosiblikni hosil qiladi.

Ko‘pchilik Navro‘z deganda ko‘z oldiga sumalak va halimni keltiradi. Holbuki, muhtasham turkiy dunyo xalqlari orasida bayram timsoli bo‘lgan boshqa tansiq taomlar ham bor. Ular faqat yegulik emas, balki o‘zida ramzlarni mujassam etgan xalq dahosi mahsulidir.

Masalan, bepoyon qozoq dashtlari ahli bayramda “Nauriz-ko‘je” tayyorlaydi. Taomga sog‘lik, donolik, o‘shish, quvonch, omad, boylik va ilohiy himoya ramzi sifatida suv, go‘sh, tuz, yog‘, un, don va sut kabi yettita mahsulot qo‘shiladi. Yetti uyda pishirilgan “Nauriz-ko‘je”ni tatib ko‘rganlar yil bo‘yi baxtli bo‘lishiga ishoniladi. Aslida vitaminlarga to‘yingan taom sog‘liqqa, sog‘liq esa baxtga eltadi. Ma‘lumot uchun, Navro‘z Qozog‘istonda 1999-yildan buyon rasmiy bayram sifatida nishonlab kelinadi.

Qirg‘iz qardoshlarimiz esa “yangi kun”ni o‘tovlarda, oq dasturxonaga tortilgan eng yaxshi taomlar bilan qarshilaydi. Xususan, buqa go‘shidan sho‘rva kun taomi hisoblanadi. Unga guruch, no‘xot, bug‘doy, makkajo‘xori, un, kartoshka, tariq va ziravorlar qo‘shiladi.

Ozarbayjonliklar dasturxonidan shu kuni “Shakaryabura” (Oy ramzi bo‘lgan taom), pahlava va bug‘doy maysalarini topasiz. Shuningdek, “s” harfi bilan boshlangan yettita taomdan ham bahramand bo‘lishingiz mumkin.

**Kun hamalga kirdi ersa,  
keldi olam Navro‘zi,  
Kechdi bahman zamharir qish,  
qolmadi qori, buzi.**

Nosiriddin RABG‘UZIY

Navro‘z bahorgi serquyosh kunlar boshlanishi demak. Quyoshning yerdagi ramzi esa olovdir. Shu ma‘noda ayyomni nishonlovchi Sharq xalqlarida gulxan bilan bog‘liq tarixiy marosimlar saqlanib qolgan.



Xususan, turklar shu kuni alanga ustidan yetti marta sakraydi. Bu ish muvaffaqiyatli o‘tsa, yil bo‘yi omad va muvaffaqiyat tark etmaydi, deyiladi rivoyatlarda. Tojik birodarlarimiz esa Navro‘z arafasida o‘zini poklash, sog‘lik, xotirjamlik va qut-barakaga ega bo‘lish uchun gulxan atrofida aylanadi.

Mavsumiy xalq o‘yinlari va marosimlarda bir-biriga o‘xshashlik bor bo‘lib, yagona maqsad jismoniy chiniqish hamda milliy qadriyatlarini ko‘rsatishga xizmat qiladi.

**“Navro‘zning betakror go‘zalligi,  
insonparvarlik ruhi va teran falsafasi  
globallashuv davrida ham butun  
bashariyatni hayratga solayotgani  
uning azaliy mohiyati va hayotbaxsh  
kuchidan dalolat beradi.**

**Navro‘zi olam hozirgi kunda  
barcha el-u elatlarni, jumladan,  
Markaziy Osiyo xalqlarini yanada  
jipslashtirmoqda”.**

Shavkat MIRZIYOYEV

Darhaqiqat, bugun mintaqamizda Navro‘z ayri-ayri holda emas, umumiy miqyosida nishonlanmoqda. Ayniqsa, Xo‘jand shahrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov ishtirokida uch mamlakat davlat chegaralari tutashgan hududda Do‘stlik

stelasining tantanalari ravishda ochilishi qardosh mamlakatlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik, yaxshi qo‘shnchilik, ishonch va strategik sheriklik munosabatlari mustahkamlanib borayotganining yangi ramzi bo‘ldi. Ilk bor uch davlat xalqlari bir nuqtada Navro‘zni nishonladi. Bu xayrli tashabbus an‘anaga aylanib, O‘zbekiston ham mezbonlik qilishni kutib qolmoqda.



Xoja Ali Hakim at-Termiziy “Navro‘znoma” hamda “Solnoma” asarlarida bayramning qay muchal va qaysi kun kirishi borasida sharqona qarashlarni ifoda etgan. Shundan kelib chiqsak, bu yilgi Navro‘z ot yilining shanba kuniga to‘g‘ri keldi. Bobomiz: “Agar Navro‘z shanba kuni kirs, Zuhul (Saturn)-ga taalluqlidir. Yomg‘ir ko‘p yog‘gay, kuzgi ekinlar yaxshi bo‘lgay. Agar Navro‘z ot yili kirs, yoz va qish mo‘tadil bo‘lib, mevalar va g‘allalar ko‘p bo‘lgay. Ot yilida tug‘ilgan farzand zahmatkash, donish, mardona, xushfe‘l bo‘lgay”, deb ta‘kidlagan.

## DUNYO NAVRO‘ZI

Bahorning kirib kelishi boshqa xalqlarni ham shodlikka, quvonchga chorlaydi. Ularning o‘z bahoriy bayramlari – Navro‘zi bor. Yaponiyada sakura gullashi katta shodiyonaga aylanib ketadi. Mart-aprel oyida tabiat hodisasini ko‘rish uchun butun dunyodan o‘n minglab sayyoh tashrif buyuradi. Bu mavsumda “Xanami” (“Guldan bahra olish”) festivali o‘tkaziladi.

Ispanlar 15-martdan 19-martgacha “Falyas” festivalini nishonlaydi. Bu olov bayrami hisoblanib, tarixi duradgorlikka borib taqaladi. Unda ulkan qo‘g‘irchoqlar yasaliib, Valensiya va boshqa shahar ko‘chalari bo‘ylab olib o‘tiladi. Mushakbozlik bo‘ladi. Bayram yakunida barcha qo‘g‘irchoqlar va

odamlar omadsizlik keltiradi, deb hisoblagan buyumlar gulxanda yoqiladi. Bu bilan poklanish va yangilanish niyat qilinadi. Shu jihatdan zardushtiylik an‘analarini yodga soladi.

“Sariq ajdar” yurti fuqarolari faslani “Bahorni tishlash” bilan kutib oladi. Nomi antiqa eshitiladigan bu festivalda odamlar qishning tugashi va bahor kelishi ramzi sifatida daykon (qizilcha yoki turp) mevasini tishlashadi. Guruch va mevalardan shirinliklar tayyorlash odat tusiga kirgan. Xitoy milliy taqvimi bo‘yicha shu kunlarda Yangi yil nishonlanadi.

## “O‘ZINGDAN QO‘YMASIN”

Albatta, bashariyatning turli talqin va ko‘rinishga ega bo‘lgan bayramlarini, marosimlarini hurmat qilamiz. Ular orasida o‘zimiz nishonlaydigan bayram ko‘nglimga yoqimli, negadir. Mana, bu yil 35-marta Istiqlol Navro‘zini umumxalq bayrami sifatida nishonlaymiz.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tom ma‘nodagi tarixiy o‘zgarishlarga mos holda, ma‘no-mazmuni tobora chuqurlashib borayotgan Navro‘z ayyomini barcha shahar va qishloqlarimizda, butun yurtimizda umumxalq sayli sifatida, yuksak tashkiliy sayiyada va ko‘tarinki ruhda nishonlash maqsadida mart boshida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori e‘lon qilingan edi.

Ushbu hujjatda, xususan, bayram doirasida jamiyatimizda hukm surayotgan millatlararo do‘stlik va totuvlik muhitini mustahkamlash maqsadida yurtimizda istiqomat qilayotgan turli millat va elatlar vakillarining milliy urf-odatlarini, an‘ana va qadriyatlarini keng namoyish qilish; hunarmandlik ko‘rgazmalari, milliy sport turlari bo‘yicha musobaqalar o‘tkazish, kitob ko‘rgazmalari, arzonlashtirilgan qishloq xo‘jaligi va ozuqa-ovqat mahsulotlari yarmarkalari, ko‘chma savdo do‘konlarini tashkil etish, ko‘klam taomlarini tayyorlash hamda bu borada ko‘rgazmali savdo va tanlovlarini uyushtirish belgilab qo‘yilgan ham Navro‘zning chinakam umumxalq bayrami maqomiga munosib o‘tishini kafolatlaydi.

Yangi kun – Navro‘z ayyomi Yangi O‘zbekistonimizga baxt-u saodat, qut va baraka keltirgay, inshaolloh!

**Guljamil A‘ZAMXO‘JAYEVA,  
Xalq ta‘limi a‘lochisi,  
Xalq ta‘limi fidoyisi**



# YEVROPADAGI DIYDOR

## Boshlanishi 1-sahifada.

O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi haqidagi film namoyishidan so‘ng O‘zbekistonning Benilyuks mamlakatlaridagi elchisi G‘ayrat Fozilov va O‘zbekiston musulmonlari idorasi vakili Shavkat Hamdamov xorijdagi barcha vatandoshlarga davlat hamisha kamarbasta bo‘lib, ularning og‘irini yengil qilishga ko‘makdoshlik ustuvor vazifa ekanini ta‘kidladi.

Aytib o‘tish joizki, ikki mamlakat o‘rtasidagi aloqalar Niderlandiyaga kelib ishlayotgan o‘zbekistonliklar soni ortib borayotgani bilangina cheklanmaydi. Ikkinchi jahon urushi davrida natsistlar tomonidan juvonmarg etilgan 101 nafar yurtdoshimizning xoki ayni shu zaminda yotgani ham o‘zaro rishtalar aslida chuqurroq ekanidan dalolat.

Mehmonlar o‘sha asir askarlar so‘nggi makon tutgan Amersfoort-Leusdenda bo‘lib, bu joyda O‘zbekiston hukumating moliyaviy ko‘magida barpo etilgan xotira muzeyi bilan tanishdi, uning rahbari Remko Rayding boshchiligidan olib borilayotgan faoliyat tafsilotlaridan boxabar bo‘ldi. O‘z yurtidan olisda halok bo‘lgan marhumlar ruhiga Qur‘on tilovat qilindi.

Mazkur tadbirlar Yevropa mamlakatlari, xususan, Niderlandiyadagi o‘zbek jamoatchiligini birlashtirish, ularning yurtimizga daxldorlik tuyg‘ularini mustahkamlashga xizmat qilishi shubhasiz.

Sharifjon AHMAD  
Amsterdam.

Suratlar muallifi  
Xusrav OZODOV.





Abdulla ORIPOV  
O'zbekiston Qahramoni

#### NAVRO'Z

Yashadim qish faslin uzun tunida,  
Ko'rdim yorug'likni tun yakunida.  
Jonim, Sen ham endi tarahhum ayla,  
Sen ham tabassum qil Navro'z kunida.

#### AJAB HIKMAT

Goho yer mehrini o'yarlarkan,  
Esga tushar dorning siyog'i:  
Ajab hikmat, odam o'larkan  
Uzilganda... yerdan oyog'i.

#### KOINOT GULTOJI

Koinot gultoji insondir azal,  
Undadir eng oliy tafakkur, amal.  
Hatto u tubanlik ichra ham tanho,  
Yo falak, ijoding buncha mukammal.

#### QUSH TILI

Abdulla Qodiriyga

Azaliy haq gapni yashirmoq nechun?  
Zavol yo'q eng asl iste'dod uchun.  
Agarda koinot tegirmon bo'lib,  
Olamni yanchsa ham, qolgay u butun.

#### XALQNI ASRASANG

Hech kimsa devor bilan ajralganmas olamdan,  
Vujudingga tutashdir tegrangdagi shu xilqat.  
Yaxshilik qil hammaga, qaytajak o'zingga ham,  
Sen o'zingni asraysan xalqni asrasang faqat.

#### NIHOL

Chinor soyasidan bahramand bo'lib,  
Turfa xil etaklar to'qimoq oson.  
O'zing ham ertaning tashvishin qilib,  
Qaydadir bir nihol ekingmi, inson?

#### AMUDARYOGA

Kimligimni bilar edim ozroq,  
Bilar edim suyakligimni.  
Amudaryoni ko'rganda biroq  
Bilib qoldim buyukligimni.

#### DO'STLIK

Biz bitta daraxtning shoxchalarimiz,  
Bir bog'ning tutashgan bog'chalarimiz.

# Mangudir Vatanda mardga ehtiyoj

Zamin koinotda bir tog' bo'lsa, biz –  
Bir-birin suyagan tog'chalarimiz.

#### USTOZ

Dedilar, dunyoda asli kim aziz,  
Aytidilar, ustozdir, ustoz begumon.  
Tag'in aytidilarki, aziz, shubhasiz,  
Ustozin qadriga yetolgan Inson.

#### MUALLIM

Shoira dedilar: – Siz baxtli inson,  
Xalqingiz ardoqlar, hamma taniydi.  
Shoir javob qildi: – Menda bir armon:  
Muallim desalar meni, qaniydi!

#### ILTIJO

Dunyodan o'tarkan ulug' bir daho,  
Xudoga so'nggi bor qildi iltijo:  
– Mendan so'ng nomimni biror zuryodim  
Pesh qilib yurmasa bo'ldi, lloho!

#### BIZ

Matlab bir bo'lmasa – jam bo'lmagaymiz,  
Jam bo'lsak – boshimiz xam bo'lmagaymiz.  
Jam qilsak insof-u diyonatni ham,  
Dunyoda hech kimdan kam bo'lmagaymiz.

#### SHUKR

Jannat seni ilhaq kutib turganmas,  
Do'zax ham sen bilan, albatta, to'lmas.  
Bitta seni yutib yer ham to'ymagay,  
Endi shukr qil-u yashayvergin, bas.

#### DARD

Nega yomonlarga dard bermas Xudo,  
Hatto tovoniga tikan kirmaydi?  
– Hammaning joniga tekkan u balo,  
Xudo dardini ham ravo ko'rmaydi.

#### ER YIGIT

O'g'lim, bo'l hikmatni qilgil boshga toj:  
Hech kimsa bo'lmasin nomardga muhtoj.  
Er yigit qalqondir yurtiga doim,  
Mangudir Vatanda mardga ehtiyoj.

#### XORIY RADIOSI

Yo'qchilikni ko'rsa, "Nega yo'q?" deydi,  
To'qchilikni ko'rsa, "Nega to'q?" deydi.  
Qo'rqqoq deb ataydi indamay tursang,  
Haq gapni gapirsang, "Qilma do'q!" deydi.

#### DO'ST

Deysanki, yolg'izlik ayladi odosh,  
Bilmam, qayoqlarga olib ketsam bosh.  
Do'sting kamligidan nolima inim,  
Bitta bo'lsa ham U quyoshdir, quyosh!

#### TINCHLIK

Dunyoda bitta so'z bor tengdir katta-kichikka.  
U hatto koinotni harir kabi o'raydi.  
Kimdir kimni yo'qlasa ko'z tikib yaxshilikka,  
Dastavval bir-biridan: "Tinchlikmi?" deb so'raydi.

#### KO'RDIM

Ko'rdim hayot bog'in ko'p in'omini,  
Ko'rdim pishganin ham, ko'rdim xomini.  
Mayli, safarga chiq, har qayga bog'il  
Va lekin pok tutgin yurtning nomini.

#### QODIRIY

Sizga yuz ming jannat bo'lgaydir ravo,  
Balki bundan ko'pin bergaydir Xudo.  
Shuncha yil do'zaxi kimsalar bilan  
Chidab yashadingiz, Qodiriy bobo!

#### MARTABA

Bir ulug' martaba tilayman Sizga,  
Uning mohiyati Haqqa tegishli.  
Desinlar, falonchi tegishli bizga,  
Vatanga tegishli, xalqqa tegishli.

#### SHIRIN SO'Z

Tashna qultum suvni orzu etgaydir,  
Oltin piyolani, axir, netgaydir.  
Bemorga mol-dunyo va'da aylama,  
Bir og'iz shirin so'z unga yetgaydir.

#### YAXSHILIK

Dunyoda shundaylar uchraydi, bilsang,  
Alif ham chiqmaydi qornini tilsang.  
Hammani o'ziga o'xshatadi u,  
– Qancha olding, – deydi, yaxshilik qilsang.

#### FE'L

Navoiy haqida kimlardir goho  
Ta'blari nozik deb qilgan iddao.  
Lekin o'zlarining fe'llari qandoq?!  
O'yab ko'rmaganlar buni mutlaqo.

#### XESH-U AQRABO

Ishlaring yurishib turgani asno,  
Ko'payib ketadi xesh-u aqrabo.  
Darvinning kitobin qo'ltiqib olib,  
"Tog'a", deb keladi maymun ham hatto.

#### O'ZBEKCHILIK

Ochlik bosgan uyini,  
Ko'krak kerib yuradi.  
Bog'lab qo'rgan qo'yini  
To'yonaga beradi.

#### MAKKOR

Yomon ayol degan bir ibora bor,  
Hech kimga tegmasin bu tamg'a zinhor.  
U avval erining boshini yeydi,  
So'ngra bolalarga o'tadi, makkor.

#### BEOZOR KIBR

Kibr-u haqoratning xillari bisyor,  
Hatto ko'rinishdan jim va beozor.  
Ko'nsangiz shudir, deb yuz qadam yo'lni  
Uch kunda bosuvchi kimsalar ham bor.

#### ONA TUPROQ

Bir vaqt Vatanimdan ketdim ko'p uzoq,  
Keldim-u zaminga egildim shu choq.  
Orada qandayin muloqot bo'ldi  
Bitta men bilaman va bilgay tuproq.

## ABADIY ADABIYOT

Nikolay ILIN,  
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi  
a'zosi

# SHOIR BILAN HAMNANAFAS



Abdulla Oripov she'riyatida o'z g'oyalari, ustoz va murabbiylariga, insoniy fazilatlarga sadoqat shaxs qadr-qimmatining asosiy mezonlaridan biriga aylanadi. Ma'naviy qadriyatlar tizimining markazida insonning axloqiy mavqei mujassam etgan ixlos tushunchasi joylashgan:  
*Ixlosni sen to'g'ri tushungin, bolam,  
Topshirig emas u, yumush emas u.  
Faqat samimiyat unda mujassam,  
U inson qavmiga hamrohdir mang'u.*  
Yaxshilikni yodda tutish, g'amxo'rlik va e'tibor uchun minnatdor bo'lish, tabiiyki, inson fazilati hisoblanadi:

*Qirg' yillik adovat unutilar sekin,  
Unutilar hatto yurakdagi darz.  
Yaxshilarning mehri unutilmas lekin,  
Unutilmas ular oldidagi qarz.*

Eng iqtidorli shaxs ham atrof-muhit bilan uzviy bog'lanmas ekan, komillikka erisholmaydi. Abdulla Oripov she'riyatida inson va jamiyat, odam va uning vatani ajralmas yaxlitlik sifatida talqin etiladi. Shoiring ijtimoiy lirikasi ko'p jihatdan O'zbekistonning mustaqillikka erishish jarayonlari bilan bog'liq. O'z millati o'rnini, o'ziga xosligini, tarixiy boyligi va ma'naviy yuksakligini anglash uning ijodini qamrab olgan muhim mavzulardan biri. Shoir yurtidoshlarining ko'zlariga tik qarab, shunday deydi:

*Dunyoda eng noyob, eng tansiq so'zdek  
Bitta kalomimni aytaman senga.  
O'zbekiston desam, desam gar o'zbek,  
Ikki qorako'z ko'rinar menga.*

aslida, har doim murakkab va mashaqqatli bo'ladi. Bizning shoirimiz esa buni teran va o'ziga xos tarzda uddalay olgan.

Eslasam, shoir ijodi nafaqat bugungi kunim, balki bolalik yillarimga ham daxldor ekan. Ayniqsa, "Avlodlar" she'rini o'qib hayajonga tushganim yodimda. Chunki bu she'rda hayotimda ro'y bergan voqeaga o'xshash holat aynan tasvirlangan edi.

Bir muddat ijarada yashaganmiz. Mahallada bizning oilamiz rus millatiga mansub yagona oila edi. Ko'chada o'ynab yurgan mahalla bolalari bilan do'stlashib ketdik, biz birgalikda daryo bo'yiga sayohatga borardik, shaxmat o'ynardik, to'pning orqasidan chopardik, o'sha o'yinlarda "Klimov" ("Paxtakor" jamoasi darvozabonining ismi) degan faxrli laqabga sazovor bo'lganman. Uzoq yillardan so'ng, yaqinda bolaligim o'tgan Toshkent davlat universiteti yaqinidagi o'sha qadrdon mahallani ziyorat qilish uchun bordim, ancha vaqt ko'chalarni sarson kezdim, qadrdon joylarni bazo'r tanidim.

Mana, mening ko'cham, qachonlardir o'zim yasagan "Tinchlik ko'chasi" degan g'aroyib taxtacha osilgan pastqamgina uy. Xayolga cho'mib borayotsam, ko'zim to'p tepayotgan bolalarga tushdi. Ulardan biri yonimga yugurib kelib "Aka, kimnidir yo'qlab keldingizmi?" deb so'rab qoldi. O'sha pallada "Avlodlar" she'rining mashhur satrlari yuragimni titratib, qulog'im ostida jarangladi:

*Bolaligim o'tgan u chekka qishloq  
Ko'chasin oralab kezaman tanho.  
Yo'lsti, so'raydi bir bola shu choq:  
– Kimning hovlisini izlaysiz, bobo?*

*Men-ku, erinmasdan kimligimni ham  
Bolaga aytishim mumkin shu joyda,  
U meni tinglar yo tinglamas, qaydam,  
Buning barchasidan unga ne foyda.*

Yolg'iz jigarim – katta opam hayotdan ko'z yumganida qattiq iztirobga tushdim. Keyin o'zim ham og'ir kasallikni boshimdan kechirdim. Bir qancha vaqt Yozuvchilar uyushmasining xushmanzara "Do'mon" ijod bog'ida sog'lig'imni tiklashimga to'g'ri keldi. Har doimgidek erta tongda sayr qilib yurgan chog'imda yonimga yoshi ulug' o'zbek ayoli kelib so'z qoldi:  
– Siz Nikolay Ilinmisiz?  
– Ha, – javob berdim men.  
– Sizni taniyman. Men yaxshi biladigan rusiyabon yagona ijodkorsiz. Abdulla Oripovning menga bag'ishlab yozgan she'rini tarjima qilgansiz, esingizdami?

– Bo'ritosh Nosirovna! – dedim baland ovozdada, o'zbek ayollari orasida kam uchraydigan bu ismni yaxshi eslab qolgan edim.

Biz shu tariqa tanishdik va shundan so'ng tez-tez ko'rishib, dildan suhbatlashadigan bo'ldik, shunda men shoirimiz hayotidagi sinovli, tashvishli davrlarda va ayol bilan nima uchun iliq munosabat o'rnatganini angladim:

*Kun-kecha ayrimay yurgan do'stlar ham  
O'yab salomlashgan paytlar ko'p bo'ldi.  
Faqat sendaylarni eslaganim dam,  
Qalbmning qaysi bir kemtigi to'ldi.*

Bo'ritosh hammaga mehribonlik ko'rsatar, samimiyat bilan muomala qilardi. Qalbi toza, iymonli musulima bo'lgan bu ayol hammaning ichki dunyosiga yo'l topa bilar, yomonliklar, adolatsizliklar o'tib ketishi, hammasi vaqti kelib iziga tushishi, Qodir Egam bu dunyoni yaxshilik, sabr-toqat va muhabbatdan iborat qilib yaratganiga ishonтира olardi.

Biz u bilan menga singil emas, yo'qotgan opam o'rniga opa bo'lishiga kelishib oldik. Men qalbmga malham bo'lgan in'om uchun Abdulla Oripovga tashakkurlar aytaman.

\*\*\*


Shoiring yubiley sanasi munosabati bilan chop etilishi rejalashtirilayotgan "Tanlangan asarlar"ini rus tilida nashrga tayyorlar ekanman, yuqori mas'uliyat bilan birgalikda, qalbimda shukronalikni ham his etyapman. Chunki menga ustozning she'rilarini chuqur mulohaza bilan qayta-qayta o'qish, ijodini teranroq anglash, uning so'zdan qurilgan ma'naviy qasriga hamda ko'pgina ko'zlaridan yashirin bo'lgan mahorat ustaxonasiga nazar tashlash imkoni berildi.

Abdulla Oripovni xotirlash, bo'y adabiy merosini o'qish-o'rganish uning hali hamon biz bilan bir davrda yashayotganidan, unga uzoq umr ko'rish saodati nasib etganidan dalolatdir, shoir ijodi shu qadar poyonsiz ummonki, uning poyonini ko'z ilg'amaydi.

Abdulla Oripovning kitobini ko'lga olgan odam borki, kitobxonga aylanadi, she'rilarini o'qigan kishi adabiyot muxlisi bo'ladi, ularning ma'nosini anglagan inson esa xuddi betakror asarlar muallifi bo'lgan shoiring o'zi kabi Vatanga jon fido qiluvchi farzand, daryodil va mas'ul shaxs bo'lib kamolga yetadi.

Abdulla Oripovni, albatta, o'qing!

Rus tilidan  
Dilfuza QARSHIBOYEVA  
tarjimasi



## BIR ASAR

## TAASSUROTI

Boshlanishi 1-sahifada.

Bu yil Bobur Mirzo tavalludiga boshqacha tayyorgarlik ko'rdim – davralardan biroz chekinib, Xayriddin Sultonning yaratilganiga 30 yil bo'lgan "Boburiynoma" asarini mutolaa qildim. Quroq tuzilishi-yu tarkibi bilan xush yoqadigan bu kitobda safarnoma, "Boburnoma", Bobur g'azaliyoti, maktablar-u go'zal hikoyatlar birlashib ketgan. Bobur Mirzo va uning avlodlari izidan yo'lga chiqqan bir guruh yurtodoshlarimizning 18 ming kilometrlik yo'l xotiralari, Eron, Turkiya, Suriya, lordaniya, Saudiya Arabistoni, BAA, Pokiston, Afg'oniston manzaralari qalamga olinadi.

Talabning kundaliklaridan boshlangan safarnoma 1974–1996-yillarni qamrab oladi. Ulardan orzularga to'la talablik dunyosining epkinlari kelib turadi – tahririyyatlar, nashriyotlar ichida yorug'lik qidirgan yoshlik epkinlari. "Guliston" jurnali haqida gap ketar ekan, menga ko'proq tanish bo'lgan "Jahon adabiyoti" jurnalining olis harorati yuragimga uriladi.

Safar xotiralari 1992-yil 19-may kuni Andijon tuproqlaridan boshlanadi. 14 kishidan iborat Bobur nomidagi birinchi Xalqaro ilmiy ekspeditsiya tarix tomon yo'lga chiqadi. Ularga qo'shilib, Ashxobod, Mashhad, Tehron, Tabriz, Anqara, Damashq, Makka, Madina, Dubai, Zohidon, Mo'iton, Lohur, Islomobod, Jalolobod, Kobul, Mozori sharif, Dehli, Haydarobod, Agra tuprog'ini kezar ekanman, "Yo'lbarsning tug'ulishi", "Oy botgan pallada", "Panoh", "Tavba", "Boburning tushlari", "Nuqta" hikoyalari, "Saodat sohili" qissasi orqali Boburning jonli va jonga yaqin qiyofasi ko'z o'ngimda yaqqol gavdalanadi, zamonlar osha qoqlab yotgan tarixning chang bosgan pardalari ortga suriladi.

Yozuvchining fikr to'liqlinlari menga shunchaki yo'l esdaliklarini o'qimayotganimni eslatib turadi. Yo'llarda yo'liqqan-u hayrat bilan qaraganlarning holatini muallif shunday sharhladi: "Dunyo bizning bundog' yengil mashinalarni minib, sayr-u sayohat qilishimizga o'rganmagan edi. Chunki biz xoh Chexoslovakiya bo'lsin, xoh Vengriya bo'lsin, xoh Afg'oniston bo'lsin, albatta, og'ir tank minib borganmiz. Olam ahli ham shunga ko'nikkan va har safar bizning bu kabi tashriflarimizni yurak hovuchlab kutadigan bo'lib qolgan edi". Beixtiyor, bugungi kunimiz "tanklar"i Yer yuzini har tomondan zirillatib yurgani xayolingizda jonlanadi, inson bolalari bani odamni bir-bridan uzoqlashtirib, bir-biridan bezori jon qilib yuborayotganini yanada chuqurroq his qilasis.

Ayni paytda, asarda aks etgan mamlakatlarning o'tmishi, farovon-u ayanchli hayoti, shahar va inson manzaralari biz kitoblarda o'qib yurgan quruq ma'lumotlardan ancha farqli ekaniga amin bo'lasiz. Bu o'lkalarning hech biri bizga begona emas, ammo turmush va taqdir yo'llaridan mutlaqo bexabar qolib ketibmiz, afg'onlarini yangilish tushunibmiz. Ziyoratchilarimizga minnat-siz muzqaymoq tutganlar, qadim o'lkalarni xorlikka cho'ktirayotgan axloqsiz ayollar, non ilinjida maktablarni tark etgan murg'ak bolalar-u, savdo ustida g'avgo qilayotgan hojilar, olis yo'llardagi sarbonlar, qo'riqchilik qilganlar-u osh-non berganlar – bir butun asar qahramonidek yodingizga o'rnanish qoladi.

Bobur Mirzo, Abdulla Qodiriy tiliga xos ohanglar bilan bezak berilgan uslub xayolotni allaladi. Safarning og'ir kezlarni ifodalashda foydalanilgan "uyqu echkinning yo'taliday qisqa bo'ldi", "yonboshimiz yerga tegmayoq pinakka keta boshladik", "ko'ngilni bamsoli afg'onning ishtoniday keng qilish kerak", "hech birorta tilni bilmasang, chet ellarda noma'qulning nonini yeb yuribsanmi" kabi qochirilmalar-u, xalqona iboralar – qaysi zaminda ketib borishmasin, kitobxonga ularning o'zbek ekanini uqitirib turadi, o'zbekona o'ktamlikka qorishib ketadi.

Asar orqali Turkiston tarixini o'rgangan, o'rganayotgan xorijlik va o'zbek olimlari, ularning eng muhim tadqiqotlari hamda noyob manbalardan xabardor bo'lamiz. "Boburnoma", "Zafarnoma", "Tarixi Muhammadiy" bilan uyg'un tasvirlar olis temuriylar, boburiylar tarixiga, necha-necha kechmishlar ichiga olib kirib ketadi. Ba'zan g'arab



Shahnozaxon NAZAROVA, filologiya fanlari doktori, dotsent

adabiyotidan voqelikning qaysidir jihatlariga aloqador o'rinarlar eslanadiki, tafakkurning bu o'yini o'quvchida zavq uyg'otadi.

Roviy Bobur Mirzo asarlarini mukammal o'rgangani sezilib turadi. Safarning har odimibi Bobur bilan ruhoniy birlikda tashlaydi, o'zini har qachon Bobur hazratlari kuzatib turgandek his qiladi va shunday yozadi. Qadam-baqadam siz ham Bobur Mirzo asarlarini, hayot sahifalarini o'rganib borasiz. Bu o'rganish – Bobur avlodlari merosi, tarixi, hayot yo'llari, ajdod-avlodlar o'rtasidagi ruhoniy bog'lanishlarni o'rganishga qadar kengayib boradi. Bobur Mirzo ijodidan Komron Mirzo ijodiga siziz o'tirgan noziklig-u iztiroblar, alamlar avlodlar taqdiridagi uyg'un va ayanch nuqtalarni ko'rsatib beradi.

Har muqaddas zaminning shukri ham tavbasi bilan ekan. Asarga ergashib, Ka'ba yo'lidagi har turli irqlar-u, millatlardan iborat to's-to'polon – ulkan oqim ichida ketib borasiz, aslida ham, bu talotum dunyomizdan shunday ketib bormayapmizmi? Darhaqiqat, "Bobur Mirzo ham (hazrat Alisher Navoiy kabi) bizning odatiy turmushimizdan, kundalik mayda hoy-u havaslar ila xiralashgan, samoviy sirlardan, ilohiy jozibadan mahrum bo'lib, behiyo g'ariblashib, huvillab qolgan hayotimizdan naqadar yuksakda!"

Ziyoratchilar uzoq va mashaqqatli, xatarnok yo'llarni bosib, Bobur maqbariga yetganlarida, kitobxon yuragida bir simillash uyg'onadi. Olis ajdodlarga muhabbat ham iymondandir: "Bismillo aytib, yuragimiz hayajondan entikib, zinalarga qadam qo'ydik. Mana, balandda, yuksak tog'lar poyida joylashgan oq marmar maqbara. Mo'jazgina, xuddi Bobur Mirzoning o'zi yanglig' ortiqcha hasham va dabdabalaridan xoli, sipo va kamtarin bir oromgoh. Beixtiyor ko'zlaringiz namlanib, bo'g'zingizga xo'rsiniq tiqilib kela boshlaydi. Mana shu sovuq sag'ana ostida, ikki gaz qora tuproq qa'rida shiddat-shijoati bilan olamga sig'magan sheri marud yotibdi" – Vatandan ko'z uzmag'an, ehtimol, har tong Vatan ziyoratiga keladigan jo'mard bahodir.

Kitobning keyingi sahifalarida Bobur nomidagi xalqaro ilmiy ekspeditsiyaning navbatdagi safarlari tilga olinadi. Bobur Mirzo avlodlari bilan uchrashuv, ularning shonli tarix haqidagi xotiralari, necha asrlik quvg'in va qatillar, azob-uqubatlarga qaramay, boburiylar sha'nini o'ksitmay ko'tarib yurganlari, ota yurtga bo'lgan so'nmas intilishi menda cheksiz muhabbat uyg'otdi. Sulola sohibasi Laylo Ummaxoniy 1993-yil Toshkentga yo'llagan maktubida "yosh nasllar tarbiyasi borasida sizlar ko'p mehnat qilishingiz lozim", deya vasiyat qiladi. Bu – buyuk sulola sharafi, nomusini saqlagan, avlodlarni shu ruhda tarbiyalagan ulug' yoshdagi onaxonning so'zlari, endigina mustaqillikka erishgan navqiron O'zbekiston farzandlariga bo'lgan onalarcha mehr va avlodlar oldidagi mas'uliyatning ifodasidir.

Kitobning menga xush yoqqani va mutaassir qilgani, ehtimol, yozuvchi bu g'aroyib asarini mening yoshimda qog'ozga tushirgani va ayni davrda o'tmishga, otabobolarning yorug' yo'lga chuqur muhabbat bilan bog'langanidadir, deb o'yladim. Bu cho'ng asardan olgan eng muhim xulosam shu bo'ldiki, insonni faoliyatsizlik zaiflashtiradi va xarob qiladi. Bobur Mirzo bo'lsa, jahoniy faoliyat maydonlarida suron solib yashadi, ijod qildi va mislsiz ibrat namunasiga aylandi.

ZAMONDOSH

## FAOLLIK

Bu dunyoda nima oson? Birovning tarjimai holini bayon qilish oson. Sanalar-u lavozimlarni shart-shart aytasan-qo'yasan. Ammo bugun so'z yuritmoqchi bo'lgan qalam sohibining faoliyatini shu ma'lumotlarning o'zi bilangina to'la holda ko'z oldimizga keltira olmaymiz.

Ahmadjon Meliboyev – tug'ma jurnalist, jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy hodisalarga befarq bo'la olmaydigan publitsist. Kamina u kishining bir kunini ham sohadan ayri holda tasavvur eta olmayman. Hatto, xorijga xizmat safari bilan yoki dam olishga borsa ham, qalam-daftarini, keyingi paytlarda noutbukini olib ketadi. U yerdagi hayotni solishtiradi, nimaningdir bizda ham bo'lishini istab, qiyosiy-tahlil mulohaza yuritadi, jo'yali-jo'yali xulosalar chiqaradi.

Uni boshqa jurnalistlardan keskin ajratib turadigan muhim-muhim jihatlari bor. Birinchisi shuki, ko'p yillik tajribalari asosida ketma-ket kitoblar yozib kelyapti. Ochig'i, bu borada tayyor an'analari yo'q darajada. Xurshid Do'stmuhammad, Farmon Toshev va boshqa ba'zilaringina ijodida shu hodisani kuzatamiz. Shunday ekan, yangi yo'l izlab, an'anani o'zing yaratib olishing kerak. Bu jihatdan Ahmadjon aka juda topqir. Birgina "Qirg beshinchi bekat" (2008) kitobini olib ko'raylik. Nominini matbuotdagi 45 yillik faoliyatidan kelib chiqib qo'ygan buni. Undan milliy matbuotimiz muammolari, uning jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi o'rni, jurnalist odobi, so'z mas'uliyati, ijodkor mahorati va muharrir malakasi haqidagi fikr-mulohazalar, uzoq yillar davomida to'plangan hayotiy tajribalar, o'y-kechinmalar bayon etilgan maqolalar o'rin olgan. Maza qilib o'qiyisiz: gap gappa, fakt faktga, mulohaza mulohazaga, tahlil tahlilga ulanib ketaveradi. Ko'ngildan, bu kitob jurnalistika bo'yicha quppa-quruq uslub bilan yozilgan ayrim dissertatsiyalardan ko'ra foydaliroq, degan fikr ham o'tadi.

Sobiq ittifoqda qayta qurish va oshkorilik davri boshlangach, O'zbekistonda ham ziyolilar uyg'ondi. Matbuot demokrattashdi. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi bu borada bayroqdor bo'ldi. Avval Odil Yoqubov, keyin Ahmadjon Meliboyev bosh muharrir sifatida bu jarayonning boshida turgan. Mana, "Qirg beshinchi bekat" shu bilan bog'liq talqin: "...O'sha kezlari "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi muharriri Odil Yoqubov Yozuvchilar uyushmasi raisi etib tayinlangan, oradan ancha vaqt o'tganiga qaramay, u kishining o'rniga munosib nomzod topilmayotgan edi. Bir emas, bir necha kishining nomzodini qayta-qayta taklif qilib ko'rdik, ammo rahbariyatga ma'qul bo'lmadi. Gap shundaki, saksoninchi yillarning oxirida gazeta o'zining shiddatli chiqishlari bilan ancha davrg' qozongan, adadi 240 mingdan oshib ketgandi. Bo'lajak muharrir biroz beboshlashayotgan bu nashrni nisbatan "silliqlashi" zarurligi sir tutilmayotgandi. Muharrir topish yo'lidagi navbatdagi urinishimiz samara bermagach, bu ishni menga topshiradigan bo'lishdi. "Yo'q" deyidigan zamon emasdi. ...1988-yilning 23-mart kuni meni tahririyyat a'zolariga rasman tanishtirishdi".

Qiziqki, jilovni tortib turish uchun "tepa"dan kompartiya markaziy qo'mitasi mas'ul xodimi rahbar qilib yuborilgan. Lekin uning davrida gazeta battar demokrattashdi. Isboti shuki, 1990-yilga kelib, nashr adadi 886 mingtaga yetdi. Qariyb bir million degan gap!

U rahbar bo'lgan davrda tahririyyatda kuchli jamoa shakllangan, chinakam demokratiya muhiti yaratilgan edi. Qayta qurish yillari shunday murakkab jarayon bo'ldiki, o'zbekning ilg'or publitsistlari o'zlari bilim-bilmaymi, asosan, ikki narsaga qarshi maqolalar yoza boshladi. Birinchisi – mustamlakachilikdan qutulish, ikkinchisi – sotsializm dan voz kechish. Ahmadjon aka buni shunday deb ifodalaydi: "Mualliflarimiz hali



shu chog'gacha matbuotimizda deyarli qo'l urilmagan mavzularni qalamga ola boshladilar. Yoqubjon Xo'jamberdiyevning "Jazo", "Ummat O'zbekovning tirikchiligi", Murod Abdullayevning "Xiyonat", Xayriddin Sultonovning "Haqiqatjamoli", Dadaxon Nuriyning "01 ga qo'ng'iroq", Izzat Sultonning Fitrat va Cho'lpon ijodiga bag'ishlangan "Madaniyatimizning ikki siymosi" maqolalari ko'pchilikka manzur bo'ldi. Chunki bu maqolalarning aksariyatida tamomila yangi talqinlar mavjud edi".

Bu davrda shunday qaltis masalalarni matbuotga olib chiqish silliqqina kechmaganini to'la tasavvur qilib turibisiz, albatta. Umuman, dadillik Ahmadjon akaning fe'lida bor. Bu – jurnalist uchun birlamchi talablardan hisoblanadi. Ahmadjon aka o'zi ishtirok etgan har qanday yig'inda dadil bir fikr-mulohaza bildiradi.

U kishi qaysi lavozimda ishlamasin, ijodan to'xtamadi. 2010-yillar bir spektakl premerasida ko'rishib qoldik. U kishiga ijoddagi muntazamligini maqtagan bo'ldim. "Qalamkashning yozmay qo'yishi o'lgani emasmi?" dedi bamaylixotirlik bilan. Aslida, bu bir shior.

Ahmadjon aka sovet davrida kamina bilan bog'liq jiddiy anglashmovchilikda balogardon bo'lgan edi. Bu yaxshiligini dilimga tugib qo'ygan edim.

1997 yoki 1998-yil bo'lsa kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining "Axborot markazi"da ishlayman. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi kuratorligi kamina yetakchi konsultant bo'lgan guruhga topshirilgan. Kutilmaganda shu gazetada testga e'tiroz



ruhidagi bir maqola bosilib qoldi. Bu yo' filologiya fanlari nomzodi Ne'mat Mahkamovning maqolasi, yo unga javob tarzida bitilgan material edi.

1995-yildan oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish test tizimiga o'tkazilgan, bu islohotning tashabbuskorlari rahbariyatga bu usulning adolatli, korrupsiyadan tamoman xoli tizim ekanini kafolatlashgan edi. Shunday vaziyatda maqolaning ta'lim tizimi mas'ullariga qanday ta'sir qilganini tasavvur qilsangiz kerak. Ulardan biri Axborot markazi rahbari Sa'dulla Hakimga e'tiroz bildiribdi. Sa'dulla aka kaminani xonasiga chaqirib, qat'iy topshiriq berdi:

## FAZILATI

– Bosh muharrir Ahmadjon aka Meliboyevni bu yoqqa chaqirib, vaziyatni aniqlashtirasiz! Tushuntirish xati olasiz!

Ahmadjon akaning "vertushka"larini yoddan bilaman: 62-93. Lekin... Bu 4 raqamning 3 tasini shart-shart teraman-u, lekin oxirgisini terolmay, go'shakni joyiga qo'yaman. Bir necha marta urinib ko'rdim, bo'lmadi. Yuz issiq, juda issiq, axir. Aka bilan bir fakultetda o'qiganmiz. Bizdan 8 yosh katta. Domlalardek ko'radik akani. Vaqti-vaqti bilan gurunglarimiz ham bor edi. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasiga bosh muharrirlik qilgan yillari ko'plab maqolalarim aynan shu nashrda bosilgan.

Har qancha yuqorining topshirig'i bo'lmasin, men u kishini chaqirib, tushuntirish xati yozdirib olsam, vaziyatni anglab turgan bo'lsa ham, kayfiyatiga, ijodiy rejalariga salbiy ta'sir qilishi mumkin edi. Hammamiz ham insonizm-da. Ayniqsa, qalami bor odamning ko'ngli bilan hazillashib bo'lmaydi. Bu yog'i masala chuqurlashib ketsa, akaning haqiqat uchun oxirigacha kurashishini yaxshi bilaman. Tarang vaziyatda "salla olaman", deb, kalla olib qo'yish hech gap emas.

Xullas, Ahmadjon akaga qo'ng'iroq qilmadim. Agar Sa'dulla aka yana so'raganda, chaqirtirishga majbur bo'lar edim. Ertasiga so'rasa, tushuntirish xati olganimni aytishim, qog'ozlar ichidan topolmaganimni bahona qilib, so'ng chaqirtirishimni dilga tugib qo'ydim. Mana, oradan chorak asrdan ko'proq vaqt o'tdi, bu xatni hech kim mendan so'ragani yo'q.

\*\*\*

Alisher Navoiyning yozishicha, X asrda Hirotda yashagan buyuk avliyo va shoir Abdulloh Ansoriy vaqtan shu qadar unumli foydalanar ekanki, asti qo'yaverasiz. Tong-saharlab qori huzuriga borib, qiroat o'rganar, keyin kelib dars tayyorlar, olti varaq yozib uni yodlar, so'ng piri xizmatiga borar ekan. Kunini shunday taqsim qilgan ekanki, hech bo'sh vaqt qolmas, aksincha, unga fursat aslo yetishmas ekan. Vaqti tig'izdan tig'iz bo'lganidan, hatto ilm yo'lida ko'pincha ovqatlanishdek majburiy ehtiyojdan ham voz kechar, xuftonga qadar och yurar ekan. Bu haqda uning o'zi: "Kecha chirog' yorug'ida hadis bitir erdim, ki non yemak

farog'atim (bo'sh vaqtim) yo'q erdi. Onam nonni tikka qilib, og'zimg'a solur erdi...", deb yozgan. Ko'rdingizmi, tug'ma buyuk bo'lgan odam uchun ham mehnat qanchalar zarur. Har qanday ulug'lik zamirida ham, naqadar qattiq mashaqqat yotadi.

Bu ma'lumotni bejiz eslamadik. 80 yoshli Ahmadjon akaning kun tartibi ham xuddi shunga o'xshaydi. Har oyda bir katta hajmli "Jahon adabiyoti" jurnalini nashrga tayyorlash ishiga rahbarlik qilish, talabalarga tahsil berish, tinimsiz ijodiy mahsulot yaratib, matbuotda dolzarb mavzulardagi materiallar bilan faol ko'rinish turishi, radio va televideniyyedagi chiqishlar, turli ijtimoiy faoliyatlar tufayli izdihomlarda ishtirok etish... Bularning hammasiga ulgurish uchun kishida qattiq intizom, aniq-tiniq maqsad, puxta-pishiq reja, tinimsiz mehnat, albattaki, qat'iylilik bo'lishi kerak. Kuni Ahmadjon Meliboyevdek faoldan faol o'tayotgan kishining yosh bilan hisoblashishga aslo-aslo vaqti yo'q. Tilagimiz shuki, 100 yoshida ham shunday faol bo'lib yursinlar!

Sultonmurod OLIM,  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan  
madaniyat xodimi



“ Kim o'z yurtini sevmasa, u hech nimani seva olmaydi. ”

Jorj BAYRON



## YANGI NASHRLAR

# Uyushma tuhfatari



O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi nafaqat ijodkorlarimizni yangi asarlar yozishga ilhomlantirish, balki yurtimizdagi davlat kutubxonalarini, shaxsiy kitob xazinalarini doimiy boyitib borish, sermazzun asarlarni o'quvchilarga yetkazib berishga ham alohida ahamiyat qaratayotgani e'tiborlidir. Bu xayrli ish ko'plab adiblarimizni kitob chiqarish "mashmasha"sidan xalos qilayotgani ham bor gap. Uyushma homiyligida nashr etilayotgan asarlar maktab va mahallalarga sovg'a qilinmoqda, keng jamoatchilik vakillari bilan o'tadigan uchrashuvlarda beg'araz tarqatilmogda.

Yaqinda Yozuvchilar uyushmasi tomonidan yana bir qator yangi nashrlar kitobxonlarga taqdim etildi. Quyida ularning ayrimlari bilan tanishtiramiz.

\*\*\*

O'zbek bolalar adabiyotida Hamza Imonberdiyev ijodi alohida o'rin tutadi. XX asrning 80-yillarida adabiyotga dadil qadamlar bilan kirib kelgan shoirning "O'jarlar", "Alla", "Lofchilar – aldoqchilar" singari to'plamlari o'z vaqtida keng kitobxonlar e'tirofini qozongan. Xususan, o'z badiiy uslubiga ega ijodkorning quyida keltirilayotgan "Maslahat" singari o'nlab she'rlari ko'pchiligimizning xotiramizdan mustahkam joy olgan.

– Qancha "s" yoziladi  
– "Hassa" so'zida, ajab?  
Bittami, ikkitami, –  
Bilolmay hayron Rajab.  
– Uchta "s" yozing, aka, –  
Aql o'rgatar Jo'ra. –  
Ortib qolgani ma'qul,  
Yetmay qolgandan ko'ra.

Hamza Imonberdiyevning bolalarga atalgan eng sara she'rlari, ertak, doston va balladalar o'rin olgan "Bilag'on" kitobi nafaqat bolajonlar, balki katta yoshli kitobxonlarni ham befarq qoldirmaydi, deb o'ylaymiz.

\*\*\*

Hol Muhammad Hasan asli kasbi huquqshunos bo'lsa-da, ayni paytda adabiyotga yuksak mehr qo'ygan, xalqona she'rlari bilan tilga tushgan iste'dodli ijodkor.

Bundan o'n yillar muqaddam O'zbekiston xalq artisti Mahmud Nomozov ijrosidagi "Ko'za" qo'shig'i keng ommalashganini ko'pchilik yaxshi eslaydi. Qo'shiqning

nihoyatda o'ziga xos, o'zbek tilining chiroyli shevasi asosida yaratilgan so'zlari aynan Hol Muhammad Hasanga tegishli.

Shoirning yangi "Saylanma"sidan ana shunday xalqona she'rlar bilan bir qatorda chuqur falsafiy hikmatlarga asoslangan to'rtliklar ham o'rin olgan.

**Botib rind-u riyoga, hirs qo'yibsan dunyoga,  
Besh kunlik shu umringda bechora osiy banda.  
Qandoq olib ketarsan bularni u dunyoga  
To'rvasi yo'q tobutda, kissasi yo'q kafanda?**

Jiddiy savol. O'quvchini mushohadaga, hayotga uyg'oq nigoh bilan boqishga undaydigan bunday hikmatli misralar kitobda bisyor.

\*\*\*

O'zbek she'riyatida o'z o'rnini topgan ijodkor G'ulom Mirzoning o'tgan davr mobaynida "Taayyun raqamlari", "Oyparast dil", "Otamning bog'i", "Qalb tomchilari", "Oftobga qaytaman", "Unutilgan hur", "Yaxshi ham siz borsiz" singari o'nga yaqin she'riy to'plamlari nashr etilgan va o'z o'quvchisini topgan.

Shoirning "Saylanma"sigas asosan keyingi yillarda yozgan asarlari, shuningdek, ayrim tarjimalari kiritilgan. Kitobga "Ey, oyl!" degan qo'shimcha nom berilishi shoir ijodida oy obrazi ko'p va o'rinli istifoda etilishi bilan bog'liq.

G'ulom Mirzo – so'zni teran his qiladigan, so'zni o'ynatib yozadigan shoir. Ayni paytda, so'z tovlanishlari she'rdagi ma'noni mustahkamlashga xizmat qilishi, albatta, e'tiborga loyiq.

**Mansab topib – do'stni yo'qotdim;  
mansab yo'qoldi-yu,  
topilmadi do'st.**

\*\*\*

**Qor odam bor bo'lsa,  
qarz so'rab kelar-ku,  
baribir.**

\*\*\*

**Sulaymon emasman  
Va bu ham  
qattol devlarning baxti.**

O'ylaymizki, mana shu kichik namunalar ham shoirning she'riy iqtidorini namoyon qilib, adabiyot ixlosmandlarini yangi kitobni topib o'qishga da'vat etadi.

\*\*\*

Adabiyotga o'zining tog' chashmasidek tiniq va samimiy she'rlari bilan kirib kelgan Mehribon

Abdurahmonova so'nggi paytlarda nasrda ham muvaffaqiyatli qalam tebratmoqda.

Adibaning yangi "Saylanma"sidan "Dasht qissasi", "Gulzor qishlog'ining gulduraklari", "Qonli shafaq surati" nomli qissalari, "Dadamga maktub", "Boybo'sin tavakkal qildi", "Qo'shnilar" kabi turkum hikoyalari, esselari, maktublari va lavhalari joy olgan.

Bu asarlarning barchasida qishloq odamlarining bugungi hayoti, sodda va beg'ubor fe'l-atvori, quvonch va tashvishlari ishonarli tarzda badiiy ifoda etilgan.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sulton tomonidan kitobga yozilgan so'zboshi "Toza tuyg'ular tarannumi" deb nomlanishida haqiqat bor. Zero, Mehribon Abdurahmonova timsolida "biz milliy adabiyotimizda o'z yo'li, o'z uslubiga ega yana bir iste'dodli adiba bo'y ko'rsatdi, deya baralla ayta olamiz" va mazkur "Saylanma" kitobxonlarning nafaqat javonidan, balki ko'ngil mulkidan ham munosib joy olishiga ishonamiz.

\*\*\*

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida nashrdan chiqqan yana bir "Saylanma" shoiri Hafiza Egamberdiyeva qalamiga mansub. Kitobning ikkinchi nomi – "Tomchilar tavallosi".

Shoira she'rlari o'ziga xos ohanglari va ma'no tovlanishlari bilan e'tiborni tortadi.

**Nazaringda yupun, ochdayman,  
Gulin to'kkan bir og'ochdayman,  
Asli ko'kdan xabarlar olib,  
Yerga qaytgan qaldirg'ochdayman...**

\*\*\*

**Bu kun bergan rizqing tishlab turibman,  
G'amning xamirini mushtlab turibman.  
Topdim, deb suyunib, kaftimni ochsam,  
Bir hovuch tuproqni ushlab turibman.**

\*\*\*


**Izlab bormang meni berg-u xazon ichra,  
Yoningizdan yashil ko'yлак kiyib o'tdim...**  
Bu she'rlarni o'qir ekansiz, o'zingizni xuddi kuzgi xiyobon oralab falsafiy xayollarga berilib, bu xayollardan ko'nglingizni poklab o'tib borayotganday his qilasis.

Darvoqe, ushbu kitoblarning barchasi "ADABIYOT" nashriyoti tomonidan ming nusxadan chop etilgan.

Ikrom BO'RIBOYEV

## OLAM OLIMI

## Subrahmanyam CHANDRASEKHAR



### yulduzlar haddini aniqlagan nobelchi

Mirzo Ulug'bek XV asrda o'z davri va keyingi asrlar uchun yulduzlar joylashuvi va harakatini misli ko'rilmagan aniqlikda o'rganadi. Astronomiyaning murakkab masalalariga yechimlar beradi. Shu tariqa bu soha rivoji bir necha yuz yilga ilgari, XX asrda olimlar yulduzlarning tuzilishi, evolyutsiyasini o'rganish darajasiga erishadi. Bu yo'nalishda ko'zga ko'ringan shaxslardan biri hindistonlik Subrahmanyam Chandrasekharidir.

## BIOGRAFIYA

U 1910-yil 19-oktyabrda Lahor shahrida tug'ilgan. Oilasida ma'rifiy kayfiyat hukmron edi. Yigirma yoshga to'lganida amakisi Venkata Raman "Yorug'likning tarqalishi bo'yicha ishi va uning nomi bilan atalgan effektini kashf etgani uchun" fizika bo'yicha Nobel mukofotiga loyiq ko'rildi.

Boshlang'ich va o'rta ta'limni uyda, xususiy maktabda o'zlashtiradi. Oliy ta'limni Prezident kollejida oladi. 1930-yilda Hindiston hukumati unga aspiranturani Kembrijda o'qish uchun stipendiya beradi. 1933-yilda doktorlik darajasini qo'lga kiritgan. Ilmiy faoliyatining asosiy qismi Chikago universitetida o'tgan.

## ILM YO'LI

Uning faoliyati yetti davrga bo'lingan: yulduz tuzilishi, yulduz dinamikasi, nurlanish o'tkazuvchanligi nazariyasi, gidrodinamik va gidromagnit barqarorlik, ellipsoid shakllarining muvozanati va barqarorligi, relyativistik astrofizika va qora tuynuklarning matematik nazariyasini o'rganish.

Shu orqali fizika qonunlarini astronomiya bilan uyg'unlashtirib, koinotni ilmiy asosda tushuntirishga ulkan hissa qo'shdi.

## E'TIROF

1983-yilgi fizika bo'yicha Nobel mukofoti Subrahmanyam Chandrasekhariga "Yulduzlar tuzilishi va evolyutsiyasi uchun muhim bo'lgan fizik jarayonlarni nazariy tadqiq qilgani uchun" va Uilyam Alfred Foulgerga "Koinotdagi kimyoviy elementlarning shakllanishida muhim bo'lgan yadroviy reaksiyalarni nazariy va eksperimental tadqiq qilgani uchun" teng taqsimlandi.

Olimning "Chandrasekhar chegarasi" nazariyasi yulduzlar mavjudligi asosini tushunishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Unga ko'ra, agar yulduz massasi ma'lum chegaradan oshib ketsa, u o'z barqarorligini yo'qotib, neytron yulduz yoki qora tuynukka aylanadi. Bu kashfiyot zamonaviy kosmologiya va astrofizikada yangi davrni boshlab berdi.

## XOTIRA

Qahramonimizning ilmiy merosi bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Uning ishlari orqali yulduzlar hayot sikli aniq tushuntirildi, qora tuynuklar nazariy jihatdan asoslandi, koinot evolyutsiyasini o'rganish yangi bosqichga ko'tarildi.

1999-yilda NASA olim sharafiga dunyodagi eng kuchli rentgen teleskopini "Chandra rentgen rasadxonasi" deb atadi. U sakkiz baravar yuqori aniqlikka ega. Shu sababli avvalgi har qanday rentgen teleskopiga qaraganda 20 baravar xira yulduzlarni ham aniqlay oladi.

Jasmina ISROIL tayyorladi.

## JAHON AYVONIDA

## HAYIT SABABLI TANAFFUS

Afg'oniston Qatar, Saudiya Arabistoni va Turkiya ittimosiga ko'ra Pokistonga qarshi jang harakatlarini vaqtincha to'xtatdi. Bu haqda Afg'oniston hukumati vakili Zabihullo Mujohid "X" ijtimoiy tarmog'ida ma'lum qildi.



Avvalroq Pokiston axborot va teleradioeshittirishlar vaziri Attaullo Taror ijtimoiy tarmoqda Pokiston jang harakatlarini vaqtincha to'xtatgani haqida yozgandi. Tanaffus 19-mart tundan 24-mart yarim tungacha davom etadi.

## YEVROPA TRAMPGA "YO'Q" DEDI

AQSH Prezidenti Donald Trampning Hurmuz bo'g'ozini ochish va Eronga qarshi global harakatga qo'shilish borasida ittifoqchilarga yuborgan so'roviga Yevropa davlatlari rad javobini berdi.

Yevropa yetakchilari sabab va oqibati to'liq tushuntirilmagan va fuqarolari orasida ommaviy kayfiyat uyg'otmagan ushbu mojaroga tortilishdan



xavfsiramoqda. Bundan tashqari, Trampning yil boshida Daniyaga tegishli Grenlandiyani sotib olish niyati va NATOning kelajagiga oid shubhali qarashlari ularni hushyor torttirgan.

Ma'lumot uchun: AQSH davlat qarzi tarixda birinchi marta 39 trillion dollarlik chegaradan oshdi.

## TARMOQDA "MAJBURIY OBUNA"



"Max" messenjerining rossiyalik foydalanuvchilari targ'ibot kanallariga majburan obuna qilinayotganidan va ulardan chiqib ketishning iloji yo'qligidan shikoyat qilmoqda. Bu haqda "Meduza" xabar berdi.


Ayrim foydalanuvchilar kanallar ro'yxatida o'zlari a'zo bo'lmagan "Владимир Соловьев", "Армия России" kabi sahifalarni ko'rib qolgan. Obunani bekor qilishga urinishda tugma ishlamagan, ba'zida ilova umuman qotib qolgan.

MAMLAKAT ELEKTR  
TA'MINOTISIZ QOLDI

Kubada milliy energiya tizimida uzilish yuz berdi, oqibatda 10 millionga yaqin kishi (mamlakat aholisining deyarli hammasi) chiroqsiz qoldi, deb xabar bermoqda "Reuters".

Kuba elektr tarmoqlari operatori – UNE kompaniyasi uzilishning aniq sabablari o'rganilayotganini ma'lum qildi.

Mamlakatda elektr energiyasini ishlab chiqarish va uzatish tizimi ma'naviy eskirgan bo'lib, ilgari ham nosozliklar kuzatilgan, biroq AQSH tomonidan joriy etilgan neft blokadasi fonida muammo yanada chuqurlashdi.



# ZIYORAT

Boshlanishi 1-sahifada.

Lekin muqaddas go'sha – uyimga, Makka-yu Madinam – onajonim huzuriga borib yotolmayman. Paxta – siyosat, paxta – ota, paxta – ona. O'zim bilgan, devorlariga serosqol dohiylarning portretlari, ko'rgazmali vositalar osilgan xona bor-budi bilan kamina va uning do'stlari ixtiyorida.

Ey falak, sinfni-ku, qaytarib berding, lekin beg'ubor yoshlik, oqko'ngil do'stlarim qani? "Yorsiz ham bodasiz... eski do'konni na qilay?" (*Mashrab*)

O'ylab qaragam, hayotimdagi bunday evrilishga birov hayron ham bo'lmabdi. Men esa tanish-bilishdan uyalib, o'zimni chetga tortishga urinaman – ko'rgan nima deydi?

E, qay birini aytasiz, SSSR degan zulm saltanatida ne-ne ko'rgiliklar, adolatsizliklar bo'lmagan. Diydlar qotib ketgan. Qay biriga hayron qolsin bechora mardum. Boshiga nima kelsa, "partiya-hukumat bir baloni bilmasa qilama", deydi-qo'yadida.

O'n-o'n besh kuncha tanish tepaliklar oralab "oq oltin" terganimiz, qarindoshlar xonadonida mehmon bo'lganimizdan so'ng partiya-hukumat "siyning bitdi" degandek, biz – talaba askarlarni boshqa manzilga – bepoyon dalalari Imom Buxoriy bobomiz ziyoratgohiga tutashib ketadigan Ernazarqo'rg'on qishlog'iga qarab ko'ptok kabi irg'itdi.

Dahriylik zamoni emasmi, muqaddas qadam-joning shundoq biqiniga kelib qolibmiz, deb birov o'ylagan ham yo'q. Bamosoli ong-u tafakkurimiz oddiy mantiq sarhadidan chekinib, o'zga bir noma'lum kengliklar uzra tentirab yurardi...

1983-yil 31-oktabrda O'zbekiston rahbari Sharof Rashidov vafot etdi. Yurtimizga qariyb 25 yil yetakchilik qilgan buyuk insonni xotirlab aqalli yig'in ham o'tkazilmadi. Barchaning dard-u xayoli faqat bir narsada – plan o'lgur qachon to'ladi-yu shaharga qachon qaytamiz?

Inson shu qadar mukammal yaratilganmikan, har qanday vaziyatda ham qon-qoni, suyak-suyagining botiniy bir burjida tarixiy xotira tuyg'usi, ajdodlar oldidagi burch hissi, oqilona fikrlashga chorlab turadigan sog'lom hujayra saqlanib qoladi?!

Dekabr oyi ham oyoqlab borar, dalada tosh qotgan qorako'sakdan boshqa hech vaqo qolmagan. Doimiy darddoshim Xurram aka bilan qadimiy qo'rg'onning qarshisida joylashgan bolalar bog'chasiga kirib borganimizda hovlining ko'shksimon shiyponchasida hamsaboqlarim Sabohat, Gulchehra, Lola, Ahmad nimanidir zo'r berib muhokama qilishardi. Sabohat partiya a'zosi bo'lgani uchun hushyorlik bilan gapirar edi:


– Hech kim bilmasligi kerak. Shomga yaqin yo'lga chiqamiz. Bu yerga kelishni butun dunyo musulmonlari orzu qiladi, bilyapsizlarmi, butun dunyo musulmonlari orzu qiladi. Shuncha tuzini yedik, shu yerginaga kelib, Buxoriy bobomizni ziyorat qilib ketmasak, kim degan odam bo'lamiz? – E, o' joyingna shunday boreb bo'lmaydu, rasm-ruso'mini taxlash kerak, bildingizme? – dedi buxorolik Ahmad do'stimiz odatdagidek yer shoxlash qilib po'ng'illar ekan.

– Bu yog'i har kimning o'ziga tan. Bir soatdan so'ng dalaning roshida, o'qariq ustida ko'rishamiz. Salimboy aka hech narsani bilmasin, – dedi Sabohat.

Salim aka – brigadirimiz. O'qish masalasida haminqadar bo'lsa-da, tashkilotchiligi bor. Paxta terimi boshlanishini intiq-intizor bo'lib kutadi. Bir ishning ortidan tushsa, qiyomiga yetkazmasdan qo'ymaydi. Kechalari o'n-o'n besh chaqirim yo'l bosib, tuman markaziga ham borib keladi. Kim kasal, kimning uzrli ishi chiqib qolgan, kimga qanday yordam zarur – barchasini hal qiladi. Rektorning oldiga ham, tuman rahbarlari huzuriga ham tortinmasdan, bir tomonga egilgan ko'yi, odobligina bo'lib, kirib ketaveradi. Yomg'irli kunlar ust-boshining shalabosi chiqib ketsa ham yelib-yugurishdan to'xtamaydi. Talabalar "haqiqiy chekist", "Dzerjinskiy", "Andropov" degan madh-u sanolarni yog'dirib, do'stimizni rosa shishiradi. Bu borada, ayniqsa, Xurram og'aga teng keladigan yo'q. "Lenin va Stalinning sadoqatli shogirdi, metin safdoshi, otashqalb inqilobchi, Andropov ishining davomchisi", deb ta'rifiy og'amiz sobit irodali do'stini. Kimdir "Marshal Ustinovniyam qo'shing", deydi bo'lsa, "E, ko'tar Ustinovningni, bizning po'latdek toblangan dohiymiz oldida u kim bo'libdi, hozirgilardan faqat Andropov bir safda tura oladi, bildingim", deya maqtov gulxaniga o't qalaydi darvesh shoirimiz. Maqtov kimga yoqmaydi, Salim og'a zavqi tarang tortib, qornini changallagan qotib-qotib kuladi.

Paxta tugashi bilan do'stimizning sharafli missiyasi ham xotima topadi. Yana avvalgidek kamtargina bo'lib, oddiy talabalar qatoriga tushib qoladi, boyaqsh.

Zimmasidagi vazifasini chin dildan ado etadigan bu saboq-doshimiz ko'p yillar Zarafshon shahrida hokim o'rinbosari bo'lib ishladi. Taqdir ekan, koronavirus davrida bandalichni bajo keltirdi. Oxirati obod bo'lsin!



Murtazo QARSHIBOY

Birovga yomonligi yo'q, ko'ngli pok inson edi. Faqat soddalik qilib, og'zidan gullab qo'ymasin, degan maqsadda bo'lg'usi ziyoratimizni u kishidan sir tutdik.

Paxta dalasining sharq tarafidagi o'qariq ustida to'plandik. Domlamiz Qarshiboy aka Usmonov po'stinini yelkaga tashlagancha kim bilandir suhbatlashib turardi. Tut daraxtlari qator ekilgan ariqning narigi boshqa xo'jalik – "Payariq" sovxoz. Sekingina, bitta-bitta o'sha paxtazorga o'tdik. Go'yo ko'rak terayotgan bo'lib, g'o'za qatorlari oralab egilgan tashkaverdik. Har-har joyda odam qorasi – baqir-chaqir qilib yotgan qiz-juvonlar ko'zga tashlanadi. Nihoyat, dalaning adog'iga yetdik. Qamish, shumg'uya bosib yotgan zovurga o'xshash joyga keldik.

– Men hozir, – dedi Ahmad va butazor oralab, ko'zdan pana, nishabroq joyini ko'zlab to'xtadi.

Tahorat olishga shaylanganini sezdik. Xurram aka ikkalamiz unga ergashdik.

Aziz o'quvchi, bu o'jiz bandani ma'zur tutgaysiz, harchand urinmay, voqealar davomi qanday bo'lganini hanuz eslolmayman. Paxtazor oralab, shoshilinchda yiqilib-surinib, entikib-emaklab peshonamiz bilan dalaning tuproq devoriga borib urilganimizni xotirlayman, xolos. O'sha onda beixtiyor hushimdan ketdimmi, Yaratganning irodasi ila butunlay boshqa dunyoga tushib qoldimmi – bu yog'i menga qorong'i.

Boshimizda ateizm qilichi o'ynab turgan o'sha og'ir zamonda yurak yutib, "sovet studentiga yarashmaydigan ish"ni amalga oshirganimiz – Imom Buxoriy bobomiz maqbarasini ziyorat qilganimizni o'ylasam, ko'nglim yorishib ketadi. Shu ezgu ishda tashabbuskor bo'lgan do'stlarimdan minnatdorman. Aslida, tashabbuskor men bo'lishim kerak emasmi?

Nimasini aytasiz, sovet davrida barcha yo'llar, hatto buyuk tariximiz va madaniyatimiz, ajdodlarimiz xotirasi tomon boradigan manzillar ham paxtazor oralab o'tardi. Paxta zulm va taqiq, qullik va mutelik timsoliga aylanib ketgandi. Paxta ishi har qanday muqaddas ishdan ham muqaddasroq edi.

O'tgan yil yozda ayolim bilan birga shu tarafga yo'limiz tushdi. Dastlab, Jomboy tarafidan kirib borishda Imom Buxoriy yodgorligidan ikki-uch chaqirim beridagi Mani qishlog'iga qo'ndik. Sersoya daraxt ostida o'tirib, o'tganlar haqiga tilovat qildik. 1971-yil 26-avgustda rahmatli qiblagohim – Buxoriy bobomizning otdoshi Muhammadqul otam ayni shu joyda mashinadan qulab, omonatini topshirgan...

Xayol bilan bo'lib, Imom Buxoriy majmuasiga qarab burladigan chorahadan o'tib ketibmiz. Darhol ortga qaytib, azim yong'oq daraxti ostida to'xtadik. "Niliy gumbazlari ko'k ichida – ko'k, lojuvard osmondan chiniy kabutar" (*G'afur G'ulom satiri*) yanglig'i tovlanib turgan yangi majmuaning muazzam va billurdek tiniq binosi qarshisida cho'k tushib, duoga qo'l ochdik. Yodgorlik bitib, ishga tushib ketsa, albatta, ziyoratga kelamiz, deb niyat qildik.

Bugun – muborak Ramazon oyi oxirlab, ulug' ayyom kunlari yaqinlashayotgan munavvar damlarda butun xalqimiz ana shu muqaddas qadamjoning ochilishini ajib bir havas va hayajon bilan kutib olmoqda.

Beixtiyor o'sha olis talabalik yillarimni, misoli azmi Haram qilib, ziyoratga o'tlangan hamsaboq do'stlarimni eslayman. Buyuk Alisher Navoiy bobomizning mashhur satrlari yodga tushadi: "Ko'yining ehromidin ko'nglimni man etmang yana // Kim, anga azmi Haram avvalgilarga o'xshamas".

Albatta, bu tabarruk maskanni qurshab turgan paxtazorlar endi yo'q. Ularning o'mida ko'zni quvontiradigan manzaralar – yorqin ranglar bilan shu'lalanib, ajib nur taratayotgan muhtasham obida, zamonaviy turar-joylar, ma'rifiy maskanlar, keng va ravon yo'llar, muxtasar aytganda, butun bir shaharcha qad rostlagan.

Qirq uch yil oldingi taqiq, man etishlar allaqachon tarix ummoniga g'arq bo'lgan. Qariyb yarim asr oldin qalbimizda zaifgina tebrangan g'urur tuyg'usi bugun mana shu ulug'vor obida kabi ko'kka yuksalmoqda.

Tabiyyi, bizning ziyoratimiz, buyuk ajdodlarimiz ruhi poklariga atab qiladigan duolarimiz ham endi boshqacha.

ILM YO'LI

## E'TIBORDAN KUCH OLDIM

Suhbatdoshimiz O'zFA Polimerlar kimyosi va fizikasi institutining Interpolielektrolit komplekslar va metallopolymerlar laboratoriyasi mudiri, kimyo fanlari doktori, professor Noyira VOHIDOVA yaqinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan mukofotlash to'g'risida"gi Farmoniga binoan "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi.

– Noyira opa, avvalo, yuksak davlat mukofotiga loyiq ko'rilganingiz bilan tabriklaymiz! Prezidentimiz imzolagan farmonda turli sohalarida alohida yutuqqa erishgan xotin-qizlar safida to'rt nafar olimaning ham ismi zikr etilgan. Ular orasida bo'lish ham sharaf, ham mas'uliyat demak...

– Inson yutuqqa erishar ekan, bu faqat shaxsiy muvaffaqiyat bo'lib qolmaydi, balki oilasi, mehnat jamoasi, mahallasi, umuman, jamiyatga daxldor yutuqdir. Ayniqsa, xotin-qizlarning yuksak marralar sari odimlashida atrofdaqlarning e'tibori, g'amxo'rligi va maslahatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, ushbu mukofotni institutimiz va laboratoriyamiz ilmiy jamoasi mehnatining e'tirof etilishi, deb qabul qildim.

Odatda, ilm ahli sovuqqon aql va jilovlangan his-tuyg'ular bilan yashaydi. Ilm inqilab va matonatni talab qiladi. Ammo farmonni o'qiganda to'qinlanib, hayajondan o'zimni qo'yarga joy topa olmaganim bor gap. Bir lahza butun faoliyatim ko'z oldimda kinotasmadek aylandi.

Bizning avlod ilm olamiga kirib kelgan asrimiz boshlarida mamlakatimizda ilm-fanga bo'lgan e'tibor va ilmiy muassasalar holati haminqadar edi. Aksariyat o'rta yoshli olimlar o'zini tirikchilik izmiga tashlagan, katta avlod esa "qanoatda filcha" bo'lib, mavjud maktablarni saqlab qolish uchun kurashayotgandi. Avlodlar o'rtasida ko'priklar qulayotgan, jamiyatda ziyolilarning mavqeyi tushayotgan davr... Olimlarning sochi dolzarb ilmiy muammolardan emas, aytaylik, oylikdan oylikkacha kun ko'rish, stressdan chiqib ketish, "propiska"ga oid masalalardan oqarardi. Mana shunday paytda yosh qizlarning bu maydon ichra turishi uchun bilim, xohish va qanoatning o'zi kamilik qilardi. Bu o'rinda oilaning qo'llovi asosiy tayanch bo'lgan. Ammo hammaga ham bunday tayanch nasib qilmadi o'sha vaqtda... Bu tomondan siylanganlardanman: avval ota-onam, keyin turmush o'rtog'im doimiy ilhom manbaim, mustahkam tayanchim bo'ldi.

Mana, o'sha yillar ham ortda qoldi. Agar o'z vaqtda ustozlar etagidan mahkam tutmaganimda, sabr qilmaganimda, maqsadim yo'lidagi to'siqlarga parvo qilmaganimda, bugun bu sharafga loyiq ko'rilmasdim.

– Olim qadri ham endi avvalgilarga o'xshamas, degim keldi dil so'zlaringizni tinglab. Bugun ilm-fan sohasiga kirib kelayotgan xotin-qizlarga havasingiz chandon bo'lsa kerak?

– Omon Matjondan juda chiroyli o'xshatish qildingiz. O'zim ham she'rlar qoralab turaman, ammo mashqlar bo'lgani uchun e'lon qilmayman. Ta'sirlangan paytlarimda esa beixtiyor ta'sirchan satrlarga murojaat qilaman. Masalan, savolingizga javobni "Oh, sening yoshliging menda bo'lsaydi!" deb boshlagim keldi.

Prezidentimiz boshchiligidagi izchil islohotlar O'zbekiston ilm-faniga yangi hayot bag'ishladi. Fanlar akademiyasi faoliyati takomillashdi, uning

tasarrufidagi institutlar qayta tashkil etildi, laboratoriyalarning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi, olimlar maoshi oshirildi, xalqaro hamkorlikka keng yo'l ochildi. Birgina misol, ilmfanning davlat siyosatidagi o'rnini mustahkamlash maqsadida "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Shuningdek, ilmiy-texnikaviy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi qonun ishlab chiqildi. Shu va boshqa hujjatlar Fanlar akademiyasi tasarrufidagi ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyatini tashkillashtirish va tadqiqotlar sifatiga o'z ta'sirini ko'rsatayotir.

**"Bugun oliyog'ida o'qiyotgan qizlarimiz soni 904 mingdan oshib, jami talabalarning 54 foizini tashkil etmoqda. O'tgan yili 60 nafar qizimiz dunyodagi eng nufuzli oliyog'ohlarga o'qishga kirgani, albatta, barchamizni quvontiradi. Stajyor-tadqiqotchilar va doktoranturada tahsil olayotganlarning 8,5 ming nafari, ya'ni 61 foizini xotin-qizlar tashkil etayotgani ham e'tiborlidir".**

**Shavkat MIRZIYOYEV**  
(Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdag i nutqidan)

Respublikamizda ilm-fan sohasida faoliyat yuritayotgan ayollarga alohida e'tibor ko'rsatilmoqda. Jumladan, faqat xotin-qizlar uchun mo'ljallangan ilmiy loyihalar tanlovi, doktorantura uchun alohida kvotalar ajratilishi dunyoda muqobil kam bo'lgan holatdir. Keyingi besh yilda yurtimizda 11-fevral – "Xalqaro ilm-fan sohasidagi ayol va qizlar kuni" keng miqyosda nishonlanmoqda. Joriy yilda sana munosabati bilan Toshkent shahrida Markaziy Osiyo olimlari ilmiy anjumani o'tkazildi. Bu jarayonlardan maqsad bitta: ayollarni nafaqat innovatsiya ishtirokchisi, balki yetakchisi sifatida ko'rish, birgalikda mintaqani bilim va innovatsiya markaziga aylantirishdir.

O'qimishli xotin-qizlarni qo'llashdan millat faqatgina yutadi: jamiyatimizda jasoratli, yuragi katta, o'ktam, oqil farzandlar ko'payadi! Zero, xalqimizda "O'tasi yaxshi – bittasi yaxshi. Onasi yaxshi – hammasi yaxshi", degan maqol bejiz aytilmagan.

– Suhbatni ilmiy faoliyatingiz va laboratoriyada olib borilayotgan ilmiy ishlar haqida davom ettirsak.

– Laboratoriyamiz Davlatimiz rahbarining 2020-yil 12-avgustdagi "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq tashkil etilgan edi.

Bu yerda interpolielektrolit komplekslar, xususan, nanostrukturallari polimer-metall tizimlarni olishning fundamental va termodinamik tamoyillari o'rganiladi, "sintez-tuzilma-xossa" bog'liqligi aniqlanadi.

Ilmiy faoliyatimni 2002-yilda Polimerlar kimyosi va fizikasi institutida stajyor-tadqiqotchi sifatida boshlaganman. 2008-yilda nomzodlik dissertatsiyasini yoqlab, uning natijalarini respublikamiz muzeylarida kichik miqyosdagi ta'mirlash ishlarida amaliyotga tatbiq etgandik. 2013-yilda Toshkent viloyatining Ovjazsoy hududidan topilgan noyob paleontologik qazilma –



Arxidiskodon qoldiqlarini ta'mirlash va O'zbekiston hududida bundan 1,8 million yil ilgari hayot mavjud bo'lganini isbotlovchi mazkur qazilmaning saqlanishida hissamizni qo'shganimizdan mamnunmiz. Hozirda qadimgi mamontlarning ajdodlari – Arxidiskodon qoldiqlari Geologiya davlat muzeyida saqlanmoqda.

Aytish joizki, doktorlik ishim hamda innovatsion loyihalar doirasida jamoamiz bilan qishloq xo'jaligi va veterinariya uchun biologik faol, ekologik xavfsiz preparatlar yaratishga erishdik. Respublika Davlat kimyo va Veterinariya qo'mitalarida ro'yxatga olingan "Kuprumxit" va "Nanoapatit" kabi agropreparatlar shular jumlasidan. Har ikkala dori vositasi ham mahalliy xomashyolar, ya'ni tabiiy ipak sanoati chiqindisi – tut ipak qurti g'umbagidan ajratib olinadigan xitozan asosida sintez qilinadi. "Kuprumxit" – fungitsidlik samarasiga ega biostimulyator hisoblanib, g'o'za va bug'doy urug'larini ekishdan oldin ishlov berishda qo'llanadi. Bundan tashqari, bu agropreparat danakli va mevali daraxtlarga zarar keltiruvchi monilloz kasalligining oldini olish va uni davolashda samarali hisoblanadi.

"Nanoapatit" esa tirik organizmlarda kaltsiy va fosfor balansini buzilishi natijasida kelib chiqadigan osteoporoz va osteomalatsiya profilaktikasi va uni davolashda ishlatiladi. Bugungi kunda mazkur ilmiy mahsulot Veterinariya qo'mitasi tomonidan parrandalar tuxumdorligini oshirish va ular organizmda mineral moddalar balansini saqlash uchun ozuqasiga qo'shimcha sifatida ishlatishga ruxsat etilgan.

Shuningdek, tuproq, suv, havo va tirik organizmlarga zararli ta'siri bo'lmagan o'simliklarda uchraydigan shira, trips, ko'sak qurti singari zararli hasharotlarga qarshi mahalliy insektitsidlar oldini va hozirgi kunda ilmiy tadqiqotlarimiz davom etmoqda.

– Ham olim, ham rahbar bo'lish bir ayolga og'irlik qilmaydimi?

– Bu ishga qanday qarashga bog'liq. Anglaganim, rahbarlik va olimlik turli yo'nalishdagi faoliyat hisoblanadi. Shuning uchun kun tartibimni, kuch-quvvatimni rasmiy va ilmiy faoliyatga barobar taqsimlashga harakat qilaman. Ishonch bildirilgandan keyin uni oqlash kerak-da.

Ba'zan faqat ilm yo'lidan ketsamchi, degan o'ylar ham paydo bo'ladi. Ammo unda xudbinlik qilgan bo'lmaymanmi, deyman yana. 8-mart bayramida Davlatimiz rahbarining: "Biz uchun bugungi o'ta og'ir va murakkab zamonda oldimizga qo'ygan ulkan marralarni egallashda yanada birlashib, hamijhat bo'lib mehnat qilish har qachongidan ham muhim vazifadir. Ishonchim komil, sizdek fidoyi, shijoatli, mehnatkash ayollarimiz, butun xalqimiz bilan birga ezgu maqsadlarimizga, albatta, erishamiz!" degan so'zlarini tinglab, kuch oldim, ilhomlandim.

– Noyira opa, mazmunli va teran mushohadali suhbatingiz uchun rahmat! Oldimizda turgan bayramlar munosabati bilan Sizni chin dildan qutlaymiz! Yurtdoshlarimizga tilaklaringiz bo'lsa, marhamat, bildirishingiz mumkin.

– Qadrlif gazetxonlarni, olimlarni, xalqimizni Navro'z va Ramazon hayiti bilan tabriklayman! Hammaga sihat-salamatlik, baxt-saodat tilayman! Eng asosiysi, yurtimiz tinch bo'lsin! Millat onalari, ayollari, qizlari ana shu tinchlik uchun o'z munosib hissasini qo'shishda bardavom bo'lsin! Jadid bobularimiz yoqib ketgan mash'alalar nuri dilimizni hamisha munavvar qilib tursin!

Vasilab HABIBULLAYEVA suhbatlashdi.



“Ayollarni o'qitishimiz – oqilona ish. Ayollarga ta'lim berishimiz dunyoni o'zgartiradi.”

Dryu FAUST



# RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI

xalqimizni **RAMAZON HAYITI** hamda  
**NAVRO'Z AYYOMI** bilan samimiy  
muborakbod etadi.  
Yurtimiz farovon,  
osmonimiz musaffo bo'lsin!




## OGOHLIK

Hazrat Alisher Navoiy ogohlikni shohlik darajasiga ko'targan. Ogohlik – bu faqat axborotga ega bo'lish emas. Ogohlik – mas'uliyat. Ogohlik – harakat. Ogohlik – jim turmaslik. Bugun bizda axborot ko'p, lekin jasorat kam. Gap ko'p, amal oz. Tanqid bor, tashabbus yo'q. Demak, ogohlik bu ham vafodorlik, ham mas'uliyat, ham amal.

– Eshitdingizmi?  
– Nimani?..  
– Falonchi boyning o'g'li giyohvand ekan.  
– Bilardim, ko'zi gezarib yurardi, qadam olishi bejo edi.  
– Mahallamiz boshidagi falonchini aytmasizmi..  
– Unga nima bo'libdi? Uyida har kuni janjal, tinchlik yo'q shularning dastidan.  
– Falonchining qizini eshitdingizmi? Ko'pchilikning yostig'ini quritgan emish. Odamlarning ma'lumotlarini olib, nomlariga kredit rasmiylashtirib, plastik kartalaridan ko'p miqdorda pullar yechib oladigan firibgarlarga qo'shilgan ekan..  
– Zamonaviy dunyoda hushyorlik muhim. Biz shunchalar hushyormizki, mahallamiz, ko'chamiz, hatto xonadonlardagi vaziyatlardan xabardormiz. Biroq adashganlarni to'g'ri yo'lga boshlashga shoshilmaymiz. Aksincha, boshiga kulfat tushib, musibatga

## G'IBBAT EMAS, IBRAT KERAK



aylangan, oila parokanda bo'lgandan keyin gapiramiz. Shunda ham "Bilardim, o'zi shunday bo'lishi kerak edi, qilmish-qidirmish", demoqdan, g'iybatdan nari o'tmaymiz. Nega ayrimlarimiz mahalladagi bunday salbiy holatlarga ko'z yumamiz? Mahalla yetilgini, nuroniylarni, mahalla faollarini ogohlantirmaymiz.

Shu kabi "hushyorlik"larimiz natijasi o'laroq, masalan, Sirdaryo viloyatida 2024-yilda giyohvand moddalarni

saqlash, sotish, taqiqlangan ekin ekish, uning kontrabandasi bilan shug'ullanishga doir 335 ta jinoyat aniqlangan bo'lsa, 2025-yilda bu raqam 362 taga ko'paygan yoki 7,5 foizga ortgan. 2024-yilda 1 ming 191 ta, 2025-yilda 1 ming 905 ta kiberog'riliklar va kiberfiribgarlik jinoyatlari sodir etilgan. 2024-yil mobaynida 6 ming 873 ta nikoh rasmiylashtirilgan bo'lsa, 1 ming 505 ta (21,8 foiz) oilaviy ajrim kuzatilgan. 2025-yilda esa 6 ming 778 ta nikoh qayd

etilib, 1 ming 573 ta (23,2 foiz) ajrim kuzatilgan. E'tibor bersak, nikohlanish kamayib, ajrim ko'payib borayotgani afsuslanarli. Endi bu ko'rsatkichlarni respublika miqyosida tahlil qilib ko'ring...

Jamiyat ham muayyan dastgoh kabi yaxlit tizim. Biror bo'g'ini yaxshi ishlamasa, ijtimoiy muhitda qonun buzilishlar, huquqbuzarliklar, ko'ngilxiraliklar sodir bo'laveradi. Buning uchun barchamiz shu dastgohning murvati sifatida javobgarmiz.

Agar har birimiz "menga nima" degan qarashdan voz kechmasak, ertaga bunday salbiy ko'rsatkichlar yanada oshmasligiga kafolat yo'q. Agar mahalladagi muammoga o'zimizning muammodek qaramasak, u bir kuni bizning ham eshigimizni qoqadi.

Ramazon hayiti va Navro'z bayrami ma'no-mohiyatiga ko'ra, mehr-oqibat, silayi rahm, tarbiya va ibrat ayyomidir. Shunday qutlug' kunlarda e'tiborsizligimiz tufayli ildiz otayotgan illatlarga ham e'tibor qaratsak yomon bo'lmaydi, menimcha. Tarbiyada tanaffus yo'q, deydilar-ku...

Bahrom BOYMURODOV

## TILBILIM

Sumalak – fors va turk xalqlarining mashhur bahor yemagi, o'zbekcha – sumalak, tojikcha – sumanak, turkcha – saman, forscha – samanak, qirg'izcha – syemlek, ozarbayjoncha – semeni halvasi, turkmancha – semeni, uyg'urcha – o'ndurma.



## SUMALAK

"Sumalak" so'zi etimologiyasi haqida gap ketganda uning forscha shu ma'nodagi "samanu" so'zidan ekanligi va Islomdan oldin ham mavjud bo'lganligi aytiladi. Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'atit turk"da ma'no jihatidan "sumalak"ni juda eslatuvchi turkcha "suma" so'zini keltiradi. "Devon"da unga berilgan izohni o'qiyimiz:

"Suma – ivitilgan bug'doy nomi. Uni quritib tuyiladi. So'ng undan ugra osh va non qilinadi. Sharbat uchun qilingan, undirilgan arpa uchun ham bu so'z qo'llanadi". Ayniqsa, mazkur izohdagi: "sharbat uchun qilingan, undirilgan arpa" so'zlari bizga sumalakni eslatadi. Mo'g'ul tilida ham shunga yaqin so'zga duch kelamiz: "sömüsün (xalxa: "söms") – qaynatma, sabzavot va yormalardan

tayyorlangan suyuq ovqat, so'p". Mazkur so'zlar qadimiy oltoy oilasiga mansub umumiy bir o'zakka borib taqalishi ham mumkin.

Turk va eron xalqlari ming yillar davomida baqamti, bir hududda yashab kelgan. Shu bois Koshg'ariy bobomiz: "turk bor joyda tat bor" ("tat" – "Devon"da "forsiy", ba'zan "uyg'ur" ma'nosida kelgan), otasozini "Devon"da bir necha o'rinda keltirgan. Shunday ekan, o'zaro ta'sirlanish, bir-biridan o'zlashtirish hollari faqat bir tomonlama emas, albatta, ikki tomonlama bo'lgan. Shu bois "sumalak" va Koshg'ariy bobomiz keltirgan "suma" so'zlari o'zaro aloqador bo'lishi mumkinmi, degan savolni o'rganib ko'rish ham mantiqqa zid bo'lmaydi.

Abduvohid HAYIT

Jadid  
adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Bosh muharrir:  
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Mas'ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:  
Gulchehra Umarova

Adadi – 18 746

Shundan:

Krill yozuvida – 6 618

Lotin yozuvida – 12 128

Media kuzatuvchilar – 79 475

Buyurtma: G – 340

Hajmi: 4 bosma taqoq, A2.

Nashr ko'rsatkichi – 222.

Tashkilotlar uchun – 223.

1 2 3 4 5 6

Sahifalovchilar:

Erkin Yodgorov  
Nigora Tosheva



Manzili:

Toshkent shahri,  
Shayxontohur tumani,  
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20  
Devonxona: (97) 745-03-69  
jadidgz@mail.ru (71) 203-24-17  
Jadid\_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:  
Toshkent shahri,  
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00  
Bosishga topshirildi: 21:30

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz

## Muassislar:



O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI



RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI



MILLIY MASS-MEDIANI QO'LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAAT FONDI



"SHAHIDLAR XOTIRASI" JAMOAAT FONDI